O`ZBEKISTON TALABASI

2024.5. № 5(15)

AVVAL TEST, SO'NG TANLOV TAMOYILI QANDAY ISHLAYDI?

"ATROFIMDAGILARNING O'RTACHA QIYMATIMAN..."

TALABALAR NOMIDAN UZRNOMA

3030-3656

ANONS

“FOTOGRAFIYA – REAL HAYOTDAN QIRQILGAN LAVHA!”

Ayrim insonlar o‘ylaganidek lo‘lilar hayoti ijodimda unchalik katta o‘rin egallamaydi, ammo... dadam 30 yildan ortiq “Kichik xalqlarning Buyuk Ipak yo‘lida omon qolishi” nomli fotoloyiha ustida ishlaganlar.

BURILISH NUQTASIDAGI HISLAR

Bu yilgi o‘zgarishlar fonida menga yoqmagan jihat imtihonlarning har yilgi muddatdan 15 kun avval boshlanishi bo‘ldi.

SINGAN RUH VA TOPTALGAN JOZIBA

Aslida, tanasida nuqson mavjud bo‘lmasligi yoki boshqalar uchun sezilmasligi ham mumkin, lekin ruhiy buzilishlari bor shaxs qiyinchiliklar va muvaffaqiyatsizliklar uchun o‘zining kamchiligini ayblaydi.

USTALAR

Kelsam, qizim xafa. Nima gap desam, ustalarning bizni haqorat qilganini aytdi. Voqea qanday bo‘lgan?

“O‘LIK SO‘ZLARDAN QOCHING...”

Aytingchi, tijoratchilarimiz vijdonlimi? Oshpazimiz, duradgorimiz, temirchimiz qay darajada o‘ziga to‘g‘ri? Qaysi kasb egasi o‘z sohasida yaxshi natijalarga erishyapti? Advokatlarimiz, parlament a’zolarimiz, jurnalistlarimiz yegan non-tuzini oqlayapti deya olamizmi? Siz yana nimani xohlaysiz?

ERISHUVCHANLIK IMMUNITETI

Hayotiy bir shoirim bor: agar sen muvaffaqiyat uchun ma’lum vaqtingni ayasang, buning badalini bir umr to‘lab o‘tasan.

VAQT “JILOVLANGAN” KUN

O‘sha kuni auditoriyaga tim qora sochi yelkasiga tushgan, qoshlari qalin, qirra burun, ko‘rinishi eronliklarga o‘xshaydigan, yoshi boshqa talabalarga nisbatan kattaroq, bo‘yi baland, qoramag‘iz yigit kirib keldi.

O‘ZBEKISTON TALABASI

Ma’naviy-ma’rifiy, ommaviy-uslubiy metodik jurnal

Bosh axborot hamkorimiz
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

Jamoat kengashi
Isajon SULTON
Alisher SHODMONOV
Ravshan ERMATOV
Olim TOSHBOYEV
Dilorom KARIMOVA
Nodir JONUZOQ
Nazokat AZIM
Abduvali XOLIQOV
Kamoliddin O‘RINBOYEV
Gulmira MUSAJONOVA
Jenisbek PIYAZOV
Ayub SHAHOBIDDINOV
Iqbol QO‘SHSHAYEVA
Bahrom IRZAYEV
Shahobiddin SHARIPOV

Muassis
“INTEGRATION CENTR UMID” MCHJ

Direktor
Chorshanbi XOLMATOV

Bosh muharrir
Sirojiddin IBROHIM

Navbatchi muharrirlar
Otash YASHIN
Maqsad OBIDJON

Jurnal tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi

Sahifalovchi-dizayner
Rahmatjon YUNUSOV

Bir yilda 10 son o‘zbek, qisman ingliz va rus tillarida chop etiladi. 2022-yil 11-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 1590-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Obuna indeksi: 1393. Adadi: 2500 nusxa.

Jurnalda e’lon qilingan materiallardagi dalil va raqamlarga mualliflar javobgar. Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Tahririyat manzili: Toshkent shahri Chilonzor tumani Novza ko‘chasi 14-uy.
“Invest Book” bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Uchtepa tumani Foziltepa ko‘chasi 12-B uy.

31.05.2024-yilda chop etishga ruxsat berildi.

Jurnal obunasi, sotuvi hamda reklama xizmati yuzasidan
+99891 077 75 75
raqami orqali ma’lumot olishingiz mumkin.

Maqolalar quyidagi manzil orqali qabul qilinadi:
@uzb_talabasi

MUNDARIJA

SINGAN RUH VA TOPTALGAN JOZIBA..... 02

AVVAL TEST, SO'NG TANLOV TAMOYILI QANDAY ISHLAYDI?..... 07

XALQARO AKKREDITATSIYADAN SO'NG..... 08

BURILISH NUQTASIDAGI HISLAR..... 11

"MAYDA" MUAMMOLAR: EKOLOGIYA BUMERANGI..... 14

READING IS A KEY TO YOUR DEVELOPMENT..... 16

BEHZOD BOLTAYEV: "FOTOGRAFIYA - REAL HAYOTDAN QIRQILGAN LAVHA!"..... 18

IMKONIYATI CHEKLANGANLARNING BITIM IMZOLASH TARTIBLARI..... 26

QADIM MOJARO TAHLILI..... 28

"ATROFIMDAGILARNING O'RTACHA QIYMATIMAN..."..... 30

G'AYRITABIIY, QO'RQINCHLI VA QIZIQARLI..... 34

"BIR TOYCHOQ XUNI"..... 36

OVOZ: HAKAMLAR HAM, ODAMLAR HAM HAYRON..... 47

TALABALAR NOMIDAN UZRNOMA..... 52

TALABALIK QISSASI..... 54

YO'XAN SNELMAN: "O'LIK SO'ZLARDAN QOCHING..."..... 56

VAQT "JILOVLANGAN" KUN..... 60

ERISHUVCHANLIK IMMUNITETI..... 66

USTALAR..... 70

SINGAN RUH VA TOPTALGAN JOZIBA

Inson noqulayliklardan voz kechgan holda erkin yashashga intilib kelgan. Xoh kundalik yumushlarda bo'lsin, xoh kiyinishda va hatto tana tuzilishida. Ana shu oxirgi tilga olingani biroz (biroz emas, ancha) o'ylantirib qo'ymoqda. Deylik, salomatlikni tiklash, tashqi nuqsonlardan xalos bo'lish uchun turli jarrohlik amaliyotlarini o'tash - yaxshilikka yaxshi. Chunki ayni shu kamchiliklar sabab kishi jamiyat orasida erkin bo'la olmaydi, o'z so'zi, fikrini boshqalarga yetkazishda, muloqotga kirishishda qiynaladi. Ammo bugun, asosan, ayollar orasida uchrayotgan bir holat e'tiborimizni tortdi. Boshqalardan ajralib turish uchun jarrohlik yo'li bilan o'z husniga ortiqcha zeb berish, shaklini, tusini o'zgartirish va turli kimyoviy moddalar bilan ishlov berish shu darajada urfga kirdiki, hech kim "Hoy, to'xta, nima qilyapsan?" demaydi. Vaholanki, o'zbek xalqining qadriyati, urf-odatlari bunaqa kemtiklarni sig'dirmasdi. Qachondan o'zbek ayollari Xudo bergan tanani bu qadar o'zgartirishga kirishib ketdilar, qachondan jamiyat buni oddiy qabul qila boshladi? Bu mavzuda erkaklar xolisona bahs yuritmaydi dersiz. Shu bois o'z fikrlarini o'rtoqlashgan nozik xilqat egalariga quloq tutsak.

– Inson qaysi holatlarda o‘zidan qoniqish hosil qilmay, kosmetik o‘zgarishlar yoki jarrohlik amaliyotlariga murojaat qiladi?



Nargiza QURBONOVA, psixiatr: Kishi o‘z tanasini sevishi va uni to‘liq qabul qilishi sog‘lom hayotning asosidir. Dismorfofobiya (ruhiy buzilish) sabab odam o‘z tanasining nuqsonlari haqidagi salbiy fikrlardan azoblanadi. Aslida, tanasida nuqson mavjud bo‘lmasligi yoki boshqalar uchun sezilmasligi ham mumkin, lekin ruhiy buzilishlari bor shaxs qiyinchiliklar va muvaffaqiyatsizliklar uchun o‘zining kamchiligini ayblaydi. Dismorfik fobiya ko‘proq jamiyat ta’siri ostida shakllanadi. Bunday insonlarning 60-70 foizi maktab davrlaridayoq tanasidagi ayrim kamchiliklariga e’tibor qaratish bilan bog‘liq muammolarga duch kelishgan. Dismorfofobiya tashqi ko‘rinishdagi bir yoki bir nechta kichik, mavjud bo‘lmagan nuqsonlarni o‘z ichiga oladi va og‘ir ruhiy azob beradi. Bu insonlarning ruhan sog‘lom odamlardan farqi shundaki, o‘z kamchiliklari haqida muntazam qayg‘urib yuradi, ularga hammasi joyida desangiz ham ishonmaydi, so‘zlaringizni jiddiy qabul qilmaydi. Bunday shaxslar rad etilish, masxara bo‘lish va shunga o‘xshash qo‘rquvlar bilan qurshalgan holda yashashadi.

Dismorfofobiya belgilari:

– depressiya bilan birga keladigan qayg‘u;

– atrofdagilar tashqi ko‘rinishini masxara qilayotgandek tuyulishi;

– jamoat joylaridan qochish va o‘zini ijtimoiy ihotalash;

– o‘zini boshqalar bilan taqqoslash;

– kamchiligini yashirish uchun har qanday choralarni qo‘llash;

– ko‘p vaqtini toshoyna oldida o‘tkazish yoki aksincha, o‘ziga qaray olmaslik;

– suratga tushishlardan qochish;

– kamchilikdan xalos bo‘lishga yordam beradigan kosmetik muolajalarni izlash;

– nuqsonlarini plastik jarrohlik yo‘li bilan to‘g‘irlasa ham o‘zidan norozilik hissi yo‘qolmaslik;

– tashqi ko‘rinishdagi nuqsoni shaxsiy hayotidagi va ishdagi barcha muvaffaqiyatsizliklar uchun sabab degan fikrlar keladi;

– hozirgi ko‘rinishi haqida oila va yaqinlarining doimiy savollaridan tashvishlanish va vahimalardan bezovtalanish;

– o‘z joniga qasd qilish haqida fikrlar bo‘lishi;

Bu holatlar boshqa ruhiy buzilishlar bilan kompleks kuzatiladi. Agar ota-onalar alomatlarning kombinatsiyasini sezsa va buzilish o'smirning hayot sifatini yomonlashtirsa (masalan, tashqi ko'rinish shunchalik uyatli bo'ladiki, bu sizga uydan chiqib ketishga va odamlar bilan muloqot qilishga imkon bermaydi) mutaxassisga ko'rsatishingiz kerak. Farzandingizga nima uchun tashvishlanayotganingizni va nima uchun mutaxassis bilan maslahatlashish foydali deb o'ylayotganingizni tushuntiring. Psixoterapevt ham, tegishli ma'lumotga ega psixolog ham buzilishni tashxislashi va davolashi mumkin.

* * *

Yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki, inson o'z kamchiliklaridan uyalgani sabab ruhiy azoblardan qutulish uchun jon-jahdi bilan harakat qiladi. Bildikki, natija faqatgina yuzaki bo'lish ehtimoli ham yuqori ekan. Ammo bugun o'ziga yarasha husni bo'laturib, sun'iy yo'llar bilan o'ziga haddan ortiq zeb berayotgan, yuz tuzilishini o'zgartirayotgan, qovoqlarini oldirib, ko'zlarini kattartirayotgan, lablarini shishirib, turmush o'rtog'i tugul, hatto tuqqan onasi tanimaydigan darajaga kelayotgan ayrim ayollarni bu ishlarni qilishga kim majbur qilyapti? To'g'ri, "Onangni otangga bepardoz ko'rsatma" degan gap bor. Ammo "Dunyoda chiroysiz ayolning o'zi yo'q" degan gap ham bor. Turmush o'rtog'i uchun bezangan ayolning ishi tahsinga loyiq, ammo sun'iy yo'llar bilan umuman boshqa odamga aylanib olish, natijada turli kasalliklar orttirib olish, farzandlariga yaxshi o'rnak bo'la olmaslik keyinchalik og'ir oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Turmush o'rtog'i tugul, hatto tuqqan onasi tanimaydigan darajaga kelayotgan ayrim ayollarni bu ishlarni qilishga kim majbur qilyapti?



– Ayrim ayollarning o‘zgacha havas bilan kimo‘zarga yuzi va tanasiga qilayotgan shakliy o‘zgarishlariga kim yoki nima sabab bo‘lmoqda?

Nozima OLIMOVA, jurnalist, tarjimon: Ming afsuski, ayol-qizlarimiz orasida ommalashib ketgan plastik operatsiyalar, yuzdagi husn belgilarini o‘zgartirish kabi qo‘rqinchli vaziyatlar, qaniydi, faqat birgina ayolning o‘ziga borib taqalsa... Yaqinda bir tanishim bilan ko‘rishib qoldim. Ishoning, uning avvalgi yuz ko‘rinishidan asar ham qolmagandi. U ko‘zi yaxshi ko‘rsa ham ko‘zni kattaroq ko‘rsatish uchun linza taqish, qosh shaklini lifting qildirish, ko‘z qovog‘ini oldirish, kiprik, qosh ektirish kabi hamjinslarim orasida urf bo‘lgan birvarakayiga ko‘plab o‘zgarishlarni qildirgan edi. U bilan gaplashyapman-u, lekin ongim shu “yangi qiz”ni qabul qilolmasdi. O‘y-xayolim “Nega unday qilasan, shundoq ham chiroyli qiz eding-ku! Ahmoq! O‘zingni shunchalik qabul qilolmadingmi?” kabi savollar bilan to‘lgan edi. Qisqasi, uni ko‘rib esankirab qoldim. U esa mening “negativ”chiligimdan hayratga tushdi...

Endi mana shu tahlilga muhtoj bo‘lgan nuqtalarni ko‘rib chiqaylik. Gap faqatgina tanishimning o‘zini qabul qilolmasligida emas. Nega mening munosabatim unga salbiy bo‘lib tuyuldi? Chunki atrofidagilar, hamkasblari (u tag‘in davlat korxonasida ishlaydi), atrof-muhit – hamma bir ovozdan uning bunday “go‘zallashgan”ini olqishlaydi. Bu bilan inkor etolmaymiz-ki, qiz-ayollarning tashqi ko‘rinishi tubdan o‘zgarishidan jamiyatning katta qismi manfaatdor. Yosh kelinchaklarning qosh-u kiprigiga ishlov berishi va buning hatto kuyov tomondan tayinlanishi – qanaqa zamonga yetib keldik axir? Kelinlarning “shunaqa qilmasam bo‘lmaydi, odamlar o‘ziga qaramas ekan deyishadi” kabi gaplari ensamni qotiradi, xolos. Boshqa bir tomondan qaralganda, bunday ko‘rinishlar shu paytgacha kino, media orqali odatlashtirilib kelindi, zamonaviylik belgisi sifatida ko‘rsatildi. Bularni inkor etuvchi qizlarga “oddiy qiz”, “sodda” tamg‘asi bosildi. Tasavvur qiling, ishxonangizga televideniyedan intervyu olishga kelishdi. Rahbaringiz televizorga chiqadigan odam tuzuk gapirmasa ham chiroyi, o‘zgachaligi bilan ijobiy taassurot qoldirishi uchun ayol xodimlardan birini tanlashi kerak bo‘ladi. Ko‘zi beixtiyor o‘sha “oddiy” va labi shishirilgan qizlarga tushadi. Oyinai jahonni qo‘yganingda esa o‘sha lablari silkinib-silkinib turgan botoksli qiz gapirib turibdi-da... Nima deysiz endi... Tanasida har xil tajribalar qilib yurganlarga karyera pillapoyalarida ham mana shunaqa muayyan imtiyozlar bor. Ular intellekti uchun emas, tashqi ko‘rinishi tufayli soxta obro‘ga sazovor bo‘laveradilar. Odamlar ayni shunday qizlarga yaxshi mulozamat qilishga harakat qilishadi: tanasi uchun shuncha pul sarflagan ekan, demak uning puli ko‘p, saxiy.

Tushunaman, har bir zamonda hamjinslarimning o'ziga oro beradigan har xil uslub, retseptlari bo'lgan. Lekin hech qachon bu qadar sun'iylashtirilgan va ayollik jozibasi toptalgan aft-angorga ega "go'zallik"ka mubtalo bo'lishmaganlar. Bu haqda kosmetologlar, plastik jarrohlar ham gapirib chiqishyapti, ammo ular ayollardan bo'layotgan chegarasiz talablar evaziga tirikchilik qilishga majburligi ham bor gap...

Ilmiy tahlillarga qaraydigan bo'lsak, o'ziga sun'iy oro berish bo'yicha Yevropa yoki boshqa iqtisodiy farovon davlatlar emas, MDH davlatlari yetakchilik qilar ekan. Ya'ni O'zbekiston ham shu qatorda. Germaniyalik ayollarning deyarli tuzukroq pardoz qilmasligi, faqat sport va yuz-teri parvarishi bilan shug'ullanishi meni hayron qoldirgan. Sharq ayollarida esa sun'iylikka intilish yuqoriligicha qolmoqda. Qizlarga aytgan bo'lardim: go'zallik oddiylikda, samimiylikda, uni yo'qotsangiz, har qanday sun'iy narsa kor qilmaydi.

* * *

O'zbek qizlarining "qoshlari kamon", "lablari g'uncha", "sochlari sharshara", "bellari xipcha", "tishlari dur", "ko'zlari charos" kabi sifatlarini mashoyixlarning bir zamonlar yozgan g'azallarida o'qib, tamshanib qo'yardik. Axir u zamonlarda bugungidek sharoitlar bo'lmagan-ku! Qatiq bilan o'smaning suvi manaman degan qizni ham suluv qilib qo'ygan axir! Ishoning, duch kelgan yigitdan so'rab ko'rsangiz, 90 foizi labi yo u-bu joyi shishirilgan, yuzida tabiiylik bo'lmagan qizlarga majburan ham ko'ngil bermasligini aytishadi.

Plastik jarrohlik uchun erining cho'ntagini qoqayotgan xotin nimaga kerak?

Unda buncha harakat-u xarajat nimaga kerak? Arzon bo'lsa ham mayliga edi. Plastik jarrohlik uchun erining cho'ntagini qoqayotgan xotin nimaga kerak (Shu joyida "er nimaga kerak?" degan ayol yodga tushdi)? Chin muhabbatga erishish uchun tabiiy go'zallik ham yetarli, aslida. Balki, ayrim faollar bu imkoniyatlarni ayollarning erkinligi, huquqi o'laroq ta'kidlab, aralashmaslikka chaqirishar, ammo kelajak egalari – farzandlarimizni dunyoga keltiruvchi nozik hilqat egalarining sog'ligi bilan bog'liq muammo – bu jamiyatning muammosi! Ehtimol bugun ayni masalaga unchalik ahamiyat qaratmayotgandirmiz, isitmasi oshkor qilsa-da, kasaliga beparvodirmiz, ammo ertaga asorati og'ir kechganda kech bo'lishi mumkin.

Otash YASHIN

AVVAL TEST, SO'NG TANLOV TAMOYILI QANDAY ISHLAYDI?

2024-2025 o'quv yilidan davlat oliy va professional ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida "avval test, so'ng tanlov" tamoyili kuchga kiradi. Bunda abituriyentlar o'z tanloviga ko'ra, test sinovi natijasida to'plagan balidan kelib chiqib, dastlab oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga, so'ng professional ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun tanlovda ishtirok etadi.

Batafsilroq aytadigan bo'lsak, joriy yildan boshlab abituriyentlar har yilning 5-iyunidan 25-iyuniga qadar (25-iyun kuni ham) test sinovi topshirish uchun ro'yxatdan o'tadi, test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi, ta'lim tili va test topshirish hududini hamda kirish imtihonlari tarkibida kasbiy (ijodiy) imtihon bo'lsa, ushbu imtihonni topshiradigan davlat oliy ta'lim muassasasini tanlaydi. Bunda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha yagona kasbiy (ijodiy) imtihonlar dasturlari va baholash mezonlari tegishli vazirliklar (idoralar) tomonidan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi. O'qishga qabul qilish bo'yicha kirish imtihonlari iyul-avgust oylarida o'tkaziladi.

ESLATMA!

Qolaversa, 2025-2026 o'quv yili qabulidan boshlab, fanlar majmuasida chet tili birinchi fan sifatida belgilangan ta'lim yo'nalishlariga qabul xorijiy tilni bilish darajasini belgilovchi milliy yoki xalqaro sertifikat asosida amalga oshiriladi.

Barcha davlat kollej va texnikumlariga "avval test, so'ng tanlov" tamoyiliga muvofiq qabul qilishda abituriyentlar kollej va (yoki) texnikumni, kasb va mutaxassislikni hamda ta'lim shaklini oliy ta'lim muassasalariga qabulning yakuniy natijasi e'lon qilinganidan so'ng 10 kun muddatda tanlaydi.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 24-maydagi tegishli farmoniga asosan, 2024/2025 o'quv yili uchun davlat buyurtmasi parametrlariga takliflar bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari kesimida shakllantirilgan. Bunda muhandislik, ishlov berish va qurilish, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot, tabiiy fanlar, AKT sohalari yo'nalishlari bo'yicha davlat granti kvotalari oshirilishi taklif etilgan.

Shuningdek, umumiy qabul kvotalari (grant va kontraktga ajratilmagan holda) OTMlarning takliflari asosida shakllantirilmoqda. Ushbu takliflar Davlat komissiyasiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi. Bunda umumiy qabul parametrlari OTMlar, yo'nalishlar, ta'lim tili, ta'lim shakli bo'yicha tasdiqlanadi. Umumiy qabul kvotalari bakalavriatga 200 mingdan ortiq bo'lishi yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 43 foizdan oshishini ta'minlaydi. Maqsadli qabul kvotalari esa hududlar, sohalar va tarmoqlarning oliy ma'lumotli kadrlarga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqib davlat granti kvotalari doirasida Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

XALQARO AKKREDITATSIYADAN

ENQA
EUROPEAN ASSOCIATION FOR QUALITY ASSURANCE IN HIGHER EDUCATION

Ta'lim akkreditatsiyasi - muntazam baholash va kelishilgan standartlar talablariga asoslangan muassasa yoki dastur sifatliligining rasmiy jamoatchilik tomonidan tan olinishini belgilaydi. Oliy ta'lim muassasasini akkreditatsiya qilish esa ta'lim tashkiloti faoliyati yoki ta'lim dasturining belgilangan standartlarga muvofiqlik sifatini tan olish tartibi hisoblanadi.

Umuman olib qaraganda, xorijiy akkreditatsiyadan o'tgan oliy ta'lim muassasini har tomonlama yangi bosqichga ko'tarilgan deyish mumkin. Yaqinda Samarqand davlat tibbiyot universiteti shunday muassasa sifatida e'tirof etildi. Universitetda bo'lib o'tgan "Fundamental, amaliy tibbiyot va farmatsiya yutuqlari" nomli talabalar va yosh olimlarning 78-xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasida Xitoy Xalq Respublikasi, Pokiston Islom Respublikasi, Germaniya, Qozog'iston, Belarus, Tojikiston, Janubiy Koreya, Hindiston va Rossiya kabi ko'plab mamlakatlarning 80 dan ortiq oliy tibbiy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot markazlari hamda yurtimizning barcha tibbiyot oliy ta'lim muassasalaridan yuzlab talabalar, yosh tadqiqotchilar ishtirok etishdi. Konferensiya o'z ishini 25 ta sho'ba bo'yicha davom ettirdi. Unda jami 2000 dan ortiq talabalar va yosh tadqiqotchilarning onlayn va oflayn rejimdagi ilmiy taqdimotlari namoyish etildi. Quvonarlisi shuki, Samarqand davlat tibbiyot universitetining ta'lim dasturlari "ECAQA" (Ta'lim va sog'liqni saqlash sohasida akkreditatsiya va sifatni ta'minlash bo'yicha Yevrosiyo markazi) mustaqil akkreditatsiya va reyting agentligi tashqi ekspert komissiyasi tomonidan akkreditatsiyadan o'tganligi tasdiqlanib, sertifikatlar universitet rektori, professor Jasur Rizayevga topshirildi. Shuningdek, akkreditatsiya jarayonida universitet ta'lim yo'nalishlarining Tibbiy Ta'lim

Butunjahon Federatsiyasi (WFME), Oliy ta'limda Sifatni Ta'minlash Yevropa Assotsiatsiyasi (ENQA) hamda Osiyo Tinch Okeani hududi Sifat Registri (APQR) standartlariga muvofiqligiga ijobiy baho berildi. Yakuniy natijalarga ko'ra, universitetning "Davolash ishi" (o'zbek, rus va ingliz tillarida) hamda "Stomatologiya" ta'lim dasturlari WFME Portal bazaviy tibbiy ta'limning akkreditatsiya qilingan ta'lim dasturlari portaliga joylashtiriladi.

Demak, xalqaro akkreditatsiyaga xalqaro assotsiatsiya tomonidan tasdiqlangan va rasman tan olingan agentlik tomonidan o'tkaziladigan oliy ta'limning ta'lim dasturlarini xalqaro standartlarga va uni amalga oshirishning xalqaro qoidalariga muvofiqligini baholash va tan olish tartibi sifatida qaralar ekan.

SO'NG...

"DAVOLASH ISHI" HAMDA "STOMATOLOGIYA" TA'LIM DASTURLARI WFME PORTAL BAZAVIY TIBBIY TA'LIMNING AKKREDITATSIYA QILINGAN TA'LIM DASTURLARI PORTALIGA JOYLASHTIRILADI

Ta'kidlash lozim, oliy ta'lim muassasalarida tashqi baholash jarayonlarini o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad oliy ta'lim muassasalariga berilgan institutsional mustaqillik, ta'lim sifatini yaxshilanishiga qo'shayotgan hissasiga baho berish, oliygohlardagi ta'lim sifatini ta'minlashdagi mas'uliyat va egalik hissini shakllantirishga amaliy yordam ko'rsatish, ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini ta'minlash tizimining xalqaro standartlarini takomillashtirishdan iborat.

Shu o'rinda:

ENQA assotsiatsiyasining maqsadi, eng avvalo, oliy ta'lim sifatini ta'minlash sohasida Yevropa hamkorligini rag'batlantirish, ilg'or tajribalarni rivojlantirish, shuningdek, sifat kafolatining Yevropa o'lchovini joriy etish maqsadida o'z a'zolari va manfaatdor tomonlar o'rtasida axborot va tajriba almashish orqali hissasini qo'shishdan iborat.

ENQA ASSOTSIATSIYASINING MAQSADI, ENG AVVALO, OLIY TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH SOHASIDA YEVROPA HAMKORLIGINI RAG'BATLANTIRISH

ECAQA esa oliy ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha nodavlat-notijorat tashkilot bo'lib, Qozog'iston Respublikasi Ta'lim va fan vazirligi tomonidan tan olingan va akkreditatsiya agentliklarining milliy reestriga kiritilgan bo'lib, sog'liqni saqlash sohasidagi kasb-hunar ta'limiga yo'naltirilgan markaz hisoblanadi. ECAQAning missiyasi oliy ta'limda sifatning xalqaro tamoyillari, ichki va tashqi sifat kafolati standartlarini joriy etishni ta'minlashdan iborat.

Ta'kidlash joizki, xalqaro akkreditatsiyadan o'tganlik to'g'risidagi guvohnoma ta'lim va xizmatlarning sifati, ularning xalqaro talablarga muvofiqligi kafolatlarini tasdiqlaydi va ushbu dasturlar bo'yicha oliy ta'lim to'g'risidagi diplom butun dunyoda tan olinadi. Bu esa universitet bitiruvchilari uchun xalqaro miqyosda katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Bugun Samarqand davlat tibbiyot universitetida tahsil oluvchilarga mana shunday imkoniyatga ega bo'lgani bois baxtli talabalar sifatida qaralmoqda.

BURILISH NUQTASIDAGI HISLAR

JURNALIMIZNING USHBU SONI UCHUN SO‘ROVNOMAMIZDA “OY MAVZUSI”GA MUROJAAT QILISHNI LOZIM TOPDIK. YA’NI ABITURIYENTLAR BILAN IMTIHON JARAYONLARIGA QANCHALIK TAYYOR EKANLIKLARI, AVVAL TEST, SO‘NG TANLOV TAMOYILI, HISSIYOTLAR, HAYAJONLAR, IMTIHON OLDI O‘YLARI HAQIDA SUHBATLASHDIK:

Diyora ERKINOVA:

– Imtihon kunlari yaqinlashar ekan, birozgina qo‘rquv bor. Ayniqsa, diqqatimni jamlashga qiynalyapman. Chunki avvalgi yil talabalik nasib etmagan va bu yil o‘zimni qayta sinab ko‘ryapman. Bu insonga ikki hissa ko‘p mas’uliyat yuklaydi.

Har yili yangi qarorlar chiqyapti, yangiliklar kutilmaganda yuz bermoqda. Bunga qarshiman. Chunki o‘tgan yili ayrim yo‘nalishlarda bo‘lishi begilangan ijodiy imtihonlar bu yil bekor bo‘ldi. Bu abituriyentni gangitib qo‘yadi.

Ingliz tilidan til bilish darajasini belgilovchi sertifikatim bor. Shu sababli bor e’tiborimni ona tili va adabiyot fanlarini kuchaytirishga qaratganman. Bu hozircha mening yutug‘im. Avval test, so‘ng tanlov tamoyili men uchun unchalik ahamiyatli bo‘lmadi. Sababi aniq maqsadim bor, unga yetkazuvchi yo‘llar o‘zgarsa-da, maqsadimni o‘zgartirmayman.

Talabalik nasib qilsa, yana qo‘shimcha til o‘rganish, IELTS sertifikatim bo‘yicha natijamni yaxshilab, ta’limning magistratura bosqichini Londonda o‘qish uchun tayyorgarlik ko‘rish niyatim bor. Xullas, rejalarim talaygina. “Murodga qasd qilib yugurgan yetar” deyishadi-ku. Maqsadlar va orzular sari olg‘a!

Bizning so'rovnoma

Hamidjon RUSTAMOV:

– Ko'pchilik do'stlarim imtihonlar oldidan hayajon borligini aytishadi, lekin men buni his qilmadim. Nazarimda, yaxshi tayyorgarlik ko'rgan, bilimiga ishongan har bir abituriyent imtihon jarayonida bor potensialini ko'rsata oladi. To'g'ri, natijaga qarab OTM tanlash tamoyiliga o'tildi, buni yengillik deb qabul qilish mumkin. Lekin test sinovlarida savollar 5 ta fandan bo'lishini ham e'tibordan qochirmaslik kerak. Hamma fanga birdek yaxshi tayyorgarlik ko'rish qiyin. Masalan, asosiy fanlari gumanitar bo'lganlar, aniq fanlarga qiynalishadi yoki asincha.

Talaba bo'lishni intiqib kutyapman. Bu orzularim sari qo'yilgan eng katta qadam, hayotim uchun burilish nuqtasi bo'lishi mumkin. Shu sababli intellektual elitaning ilk qatlami bo'lmish talabalar safidan joy olishim shart deb bilaman.

Davronbek IKROMOV:

– Ochig'ini aytganda, menda unchalik hayajon bo'lgani yo'q. Chunki o'z yo'nalishim bo'yicha viloyat, tuman olimpiadalarida muntazam qatnashib kelganim uchun test jarayonlari va bunday muhitga ko'nikib qolganman.

Imtihon jarayonlariga har yili turli xil o'zgarishlar kiritilishiga o'rganib ham qoldik. Bu yilgisi, avval test, so'ng tanlov tamoyili, chindan ham abituriyentlar uchun manfaatli bo'ldi. Shaxsan men uchun ma'qul, negaki natijamga qarab, imkoniyatlarimni chamalab, o'qish joyini tanlashim mumkin.

Hozircha talabalik uchun hech qanday reja tuzganim yo'q va bunda mantiq ko'rmayman. Chunki bir narsa aniq – talabaning ishi faqatgina o'qish, ilm olish. Menda ham shunday umumiy maqsad bor.



Malika OTAMURODOVA:

– Hayajon va qo'rquv aralashib ketdi. Ko'pchilik talabalar maslahatiga amal qilib, hayajonlanmaslikka harakat qilyapman. Lekin bu qiyin. Ayniqsa, imtihon jarayonida hayajon pand berib qolishidan qo'rqaman. Imtihonga to'laqonli tayyorman deb o'ylamayman. Chunki bizda beshta fan blogi mavjud. Barcha fanlarga to'liq tayyorlanish esa ancha mehnat talab qiladi. Lekin oilam ishonchini oqlash va maqsadlarimga erishish uchun bor kuchimni sarflayapman.

Har bir abituriyentda bo'lgani kabi talabalik mening ham orzum. Asosiy maqsadim – yaxshi kadr bo'lish. Soham bo'yicha yetuk mutaxassisga aylanish. Qolaversa, yaxshi daromad topish va o'zim, oilam uchun qulay sharoit hozirlash.

Nazifaxon MUHAMMADALIYEVA:

– Imtihonlar oldidan birozgina qo‘rquv va hayajon bor menda. Buni to‘g‘ri qabul qilaman, chunki qaysi bir ma’noda kelajagim, maqsadlarim ro‘yobi shunga bog‘liq. Albatta, bu insonga kuchli mas’uliyat yuklaydi. Test sinovlariga jiddiy e’tibor qaratyapman. O‘ylaymanki, imtihon kuni aqlim hissiyotlarimni boshqara oladi va hech qanday hayajonsiz bor imkoniyatlarimdan foydalanaman.

Bu yilgi o‘zgarishlar fonida menga yoqmagan jihat imtihonlarning har yilgi muddatdan 15 kun avval boshlanishi bo‘ldi. Negaki, bu bizdan qo‘shimcha tayyorgarlik uchun 15 kunni “o‘g‘irlaydi”. Qolaversa, endi imtihonda olgan natijalarimdan kelib chiqqan holda OTM tanlashim mumkin. Bu, shubhasiz, abituriyentlar foydasiga ishlaydi.

Soha tanlash bo‘yicha bir qarorga kelish qiyin masala ekan. Bu borada 3-4 marta o‘zgarish qildim. “Bu sohaning kelajagi bormi, keyin afsuslanmaymanmi, men uchun qanchalik manfaatli tanlov bo‘ladi?” deya ikkilanasiz ekan. Lekin bugun maqsadlarim aniq va shu yo‘lda tinimsiz harakatdaman. Talabalik sari olg‘a!



Ijodbek MADAMINOV:

– Yildan yilga o‘zgarishlar, kutilmagan yangiliklar bo‘lmoqda. Xususan, bu yil ham. Menimcha, o‘zgarishlar faqatgina abituriyentlar foydasiga ishlaydi, chunki tanlov imkoniyatlari kengayapti. Avvaliga bo‘lgan o‘zgarishlar menga unchalik yoqmagandi, keyin sekin-asta ko‘nika boshladim.

Avval test, so‘ng tanlov tamoyilini foydali taraflari ko‘p, lekin men o‘z yo‘nalishimni aniq tanlab olganman, aniq reja asosida tayyorlanganman. Shu sababli men uchun bu unchalik ahamiyatli emas, adolatli imtihonlar bo‘lsa, har qanday holatda ham bilimlilar yutaveradi.

Talabalik haqida o‘ylasam, hozirdan xursand bo‘lib ketaman. Hayotimning yangi sahifasi uchun ham rejalarim bor. Albatta, hammasini vaqt ko‘rsatadi.

Universitet tanlashda ozgina ikkilanishlar ham bo‘ldi, chunki xususiy oliy ta’lim muassasalari ham ko‘payib bormoqda. Lekin davlat OTMsini tanladim. Imkoniyatlarimni yetarli deb baholayman. Yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan, o‘ziga ishongan abituriyentlar hozir bemalol o‘zlari xohlagan universitetning talabasi bo‘lishmoqda.

Maqsad OBIDJON yozib oldi

"MAYDA" MUAMMOLAR:

EKOLOGIYA BUMERANGI



Oxirigacha yopilmagan jo'mrakdan tomchilayotgan suv, mashina oynasidan uloqtirilgan yelim idish, to'plangach yoqib yuboriladigan xazonlar, qurilishga "xalal" berayotgani uchun imi-jimida kesib tashlanayotgan daraxtlar, ko'ngil xushlash uchun ovlanayotgan jonivorlar... Bularning bumerang xususiyatiga ega ekanligini bilasizmi?

Zaboni yo'q ona tabiat o'z noroziligini mana shu shaklda bildirmoqda: suv va elektr energiyasi narxi oshganidan noliyapmiz, o'pkalar kun sayin changga to'layotgani, nafas olish qiyinlashib borayotganidan shikoyat qilyapmiz va hokazo.

Nafas olish va qon aylanish tizimidagi jiddiy muammolarning kelib chiqayotgani, o'pkaning pnevmokonioz, chang bronxiti kabi kasalliklarga chalinayotgani sababi sog'ligimizga bee'tiborligimizdan-da ko'proq, ekologiyaga sovuqqon munosabatda bo'layotganimiz bilan bog'liqdir, balki?!

O'zimiz, farzandimiz kelajagiga qanchalik qayg'ursak, tabiat uchun ham shunchalik jon kuydirishimiz yuqoridagi katta va yechimi murakkab muammolarning oldini oladi, albatta! Dunyoni o'zgartirmoqchi bo'lgan inson nima qilishi kerakligi haqida ko'p eshitganmiz. Keling, quyidagi juda oddiy ko'rinadigan, ammo muhim bo'lgan qoidalarga amal qilish hamda yaqinlarimizni ham bunga undash qanchalik samarali ekanligini birga ko'rib chiqamiz:

1. Tish yuvayotganda suvni o'chiring yoki kerakli miqdordagi suvni idishga quyib oling. Aslida, bu jarayon uchun ko'pi bilan 1 stakan - 200 ml suv kifoya ekan. Agar bu vaqt oralig'ida jo'mrakdagi suv oqib yotaversa, 7 litr suv isrof bo'lishi mumkinligini bilarmidingiz? Agar butun O'zbekiston aholisi suvdan shu taqlid foydalansa, bir kunda qariyb 250 tonna suv bemaqsad oqizib yuborildi degani. Bu hajmdagi suv qurg'oqchilikdan qiynalayotgan mamlakatlar aholisining 35 nafari uchun suvga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga yetarli bo'ladi. Nafaqat tish yuvish, balki soqol olish, soch yuvishda yoki yuzni sovunlayotganda shunchaki jo'mrakni yopib qo'yishimiz shart. Bir qarashda juda ham mayda masala bo'lib tuyilishi mumkin, lekin bu sizning global suvsizlikka qarshi kurash uchun qo'sha olgan hissangiz bo'lishini unutmang. Qolaversa, elektr kabi tabiiy resurslar sarfini ham imkon qadar qisqartirish nafaqat kelajak avlodlarni elektr energiyasidan mahrum qilmaslik, uy-joy kommunal xo'jaligi xarajatlarining katta qismini tejab qolish ham deganidir. Bundan o'zingiz ham manfaat ko'rasiz-ku, shunday emasmi?

2. Agar Navoiy bobomiz do'kondan mahsulot harid qilib, foydalanib bo'lgach, u solingan yelim idishni axlatga tashlab yuborganlarida o'sha idish bugun endi chiriy boshlagan bo'lardi. Og'irimizni yengil qiladigandek ko'rinayotgan, do'konlarda tekinga yoki arzimagan pulga beriladigan bu matoh to'liq chirib, zararsizlanishi uchun 500 yilgacha vaqt o'tishi kerak. Sayyoramizda esa har daqiqada bir millionga yaqin polietilen paket ishlatiladi, aksariyati bir necha soatdan so'ng shunchaki axlat qutisiga tashlab yuboriladi. Agar sizni plastik qoplar ichiga kirib qolib shikastlanayotgan yoki bo'g'ilishdan nobud bo'layotgan himoyasiz jonivorlar xafa qilolmasa, organizmingizda mikroplastmassalar to'planishi va oqibatda o'tkir zaharlanishdan ogohlantirmoqchimiz! Yelim paketlarning to'planishi atrof-muhitning mikroplastmassalar bilan ifloslanishiga olib keladi. Ular hayvonlarning oziq-ovqat zanjiriga kirishi va hatto insonlarning ichimlik suvigacha yetib borishi ehtimoli juda-juda yuqori. Siz esa muqobil variantlar - qog'oz qop, to'qilgan eko-sumkalar, matodan tikilgan eko-xalta ya'ni shopperlarni tanlash yo'li bilan bu xavfni osonlik bilan to'xtata olasiz!

3. Xuddi polietilen paket singari bir martalik idishlarga "yo'q" deyish ham tabiatga qilgan ulkan g'amxo'rligingizdir. Qahvani bir martalik idishga emas, ko'p martalik buyum - termo krujkaga quydirib oluvchi qahvaxo'rlarga xorijda, hatto poytaxtimizning ayrim qahvaxonalarida ham maxsus chegirmalar mavjud!

4. Ayrimlar moddiy manfaat yo'lida daraxtlarni kesayotgan bir vaqtda siz imkoningiz qadar nihollar o'tqazing. Birgina ko'chatni parvarishlab bir necha yildan so'ng jaziramada soya-salqin beruvchi, stress alomatlarini, astma kasalligi xavfini kamaytiruvchi, jismoniy va ruhiy salomatlikni yaxshilovchi, nafas olayotgan havongizdagi zararli moddalarni filtrlab turuvchi, shuningdek, shahar shovqinini pasaytirishga yordam beradigan bebaho do'stga ega bo'lasiz.

Yuqorida sanab o'tilgan holatlar qanchalik kichik va oddiy ko'rinmasin, jar yoqasiga yaqinlashayotgan tabiatni saqlab qolishga yordam berishi dunyo tajribasida isbotini topgan. Ularga amal qilishni dushanba yoki ertadan emas, bugundan boshlang!

Ziyoda RAHIMBOYEVA

READING IS A KEY TO YOUR DEVELOPMENT

I have finished reading one book today. In one day and in a case of working from 8:00 to 16:00.

So, we will see how you too can finish reading one book in one day while working or studying. Reading a book is a guarantee of development. It is a mistake to say that you will develop without reading a book. By doing things that others cannot do, knowledge increases, our thinking changes, and our value increases. Unfortunately, many people cannot read. The main reason for this is that we cannot control the noise. There are several reasons:

- laziness;
- lack of discipline;
- we are distracted very often;
- that the desire for development is not strong.

It is difficult to change all these at once. If we manage even one of them, it will be possible to finish one book in one day. Without any magic keys. Now we will look at step-by-step what needs to be done for this:

STEP 1.

You get a book of no more than 200 pages that you want to read! Choosing smaller books is an important factor in forming a reading habit.

For example, the name of the book I read is "The richest man in Babylon", about 200 pages. A smaller book is easier to finish. The feeling of completion gives a sense of victory and plays an important role in the formation of the reading habit.

STEP 2:

You put the phone on "airplane mode". You will find an environment where you will not be disturbed. Put the phone on airplane mode and turn on the alarm clock for 30 minutes. The phone stays in another room. If you don't have another room, put it in the yard. If you don't have a yard, put it in the bath. Keep it out of sight. The biggest enemy of our attention is the phone. Don't worry, 30 minutes won't make a big difference. You and I are not kings or ministers. The world will go on without us. Many people make mistakes here. He or she thinks it is very important. The universe does not revolve around us. We are not as important as we think. If we don't look at the phone for 30 minutes, we won't miss anything.

STEP 3:

You start reading a book. It will be difficult at first. Imagine that 90% of your peers haven't done what you did in the 2 steps above. It is happening because of your desire to change.

One rule. You read sitting on the chair without standing or moving until the alarm clock rings. This is a difficult process. The brain does not want to accept. Sleep comes. The mind wanders. The brain tries to avoid this with various tricks. This is a good sign. It's a sign that we're taking ourselves out of our comfort zone. 30 minutes!

HOW DID I DO?

The above book is around 200 pages long and has a total of 50,000 words. An average person can read 250 words per minute. 50,000 / 250 = 200 minutes, 200 / 60 = 3 hours 20 minutes. I studied for 1 hour after morning with the above "reading sitting on the chair" method. At work, I read 3 10-minute sessions among pupils. During the lunch today, it's been 1 hour to "reading sitting on the chair". I "read sitting on the chair" for 30 minutes before going to sleep, the book was finished. Total 60+30+60+30 = 180 min. If you read 30 minutes a day, you read more than the 25+ year old undergraduate in America.

The method I use above is very simple, but simple does not mean easy. If a new skill seems difficult to you, then you are learning. Remember, if it were easy, everyone would be doing it.

Now stand up, take one book, stop asking questions for a certain time, read the book and share with the rest what the result was!

STEP 4:

You repeat the above 3 steps until the book is finished. You don't have to finish reading one book in one day. The fact that you can read a book in one day in one 30-minute block is a great achievement. It's even better if there are two. Don't say impossible. I did it, so you can too.

Yo'lchi ABDUXALILOV
teacher

...LAHZANI USHLAB QOL, YASHAB O'T LAHZANI.

ESHQOBIL SHUKUR



BEHZOD BOLTAYEV: "FOTOGRAFIYA – REAL HAYOTDAN QIRQILGAN LAVHA!"

Bu yigit buxorolik mahoratli fotograf Behzod Boltayev. Buxoro madaniyat kollejining drama teatri aktyorligi yo'nalishini tamomlagan. Yoshi 28 da. 2021-yilda o'tkazilgan "Canon-Uzbekistan" tanlovi g'olibi, Fransiyada bo'lib o'tgan "Youth Lens on the Silk Road" fototanlovida 3-o'rin sohibi, qolaversa, ko'plab xalqaro fototanlovlarda ishtirok etgan. Qolgan gaplarni uning o'zidan eshitamiz.

FOTOGRAFIYA MOHIYATI

Fotografiya - bu san'at, dunyodagi buyuk ixtirolardan biri. Lahzani mangulikka muhrlab qo'yish fotografiyaning o'zgacha xususiyatlaridandir. Kezi kelganda bitta surat mingta so'zdan ustun bo'lishi, ta'sir doirasi esa tasavvur chegaralarini hatlab o'tishi mumkin. Fotograflik bir joyda o'tirib ishlashni xush ko'radiganlar yoki daromad qilmoqchi bo'lganlar uchun emas, bu kasb doimo harakatda bo'lish, yurish, sayr qilish, diqqatli bo'lishni taqozo qiladi. Qolaversa, o'z ustida ishlash, soha yangiliklaridan doim xabardor bo'lish zarur. Fotografiya - mening asosiy mashg'ulotim, hayot tarzim, kundalik ishim. Otam fotograf bo'lganlari uchunmi, bolaligimdan foto va videoga mehrim tushgan (qondan o'tgan bo'lsa kerak). Tabiiyki, odam o'z kasbini yaxshi ko'rsa, zavqqa burkanib yashaydi, menda ham shunday. Ba'zida bir kunda yuzlab surat olishim mumkin, shulardan bir-ikkitasi muvaffaqiyatli chiqsa, kechgacha, hatto uch-to'rt kungacha jo'shqin kayfiyatda yuraman. Fotograf uchun lahza hamma narsani hal qiluvchi omil. Shuning uchun ham uning qadri baland. Fotograf bir onning o'zida ko'p narsa haqida hikoya qiluvchi muhim faktni tarixga muhrlab qo'yishi mumkin. Kerakli, qiziq lahzalarga ulgurmagan vaqtlarim ham bo'lgan. Qattiq achinaman, hattoki asabiylashaman.

San'at kundaligi

OTAM MAQTAMAGAN

Ijodimning qon tomirlariga kelsak, ular, albatta, borib otamga taqaladi. Otam - Shavkat Boltayev fotografiya san'atini rivojlantirishga bemisl hissa qo'shgan, Buxoro fotografiya maktabini yaratgan inson. Bu meni qanchalar faxrlantirishini tasavvur qilish qiyin. Bolalik kezlarimni eslasam... Otamning san'at sohasida juda ko'p do'stlari bo'lib, uyimizga tez-tez kelib turishar, ijodiy suhbatlar qurishardi. Bu manzara mening go'dak dilimga fotografiyadek go'zal "nihol"ni qadagan bo'lsa ajab emas. 3-4 yoshimda havas ortidan dadamning fotokameralarini qo'limga olgan ekanman. Yetti yoshimdan rasm, keyinroq videolavhalar ola boshladim, tanlovlarda qatnashdim. Dadam ishlarimni keskin tanqid qilsalar-da, menga bu san'atning sirlarini erinmay o'rgatar, maslahatlar berardilar. Lekin negadir hech maqtamas edilar. Anglab yetsam, ortiqcha maqtash dushmanlikka kirar ekan. Shu o'rinda padarim haqida ozroq gapirsam.

SUPERSAN'ATSEVAR

Otam juda iste'dodli, san'atning barcha sohalarini yaxshi tushunadigan, o'z umrini san'atga bag'ishlagan fidoyi kishi edi. Fotografiya bilan bir qatorda kino, video, musiqa, tasviriy san'at bilan ham shug'ullanganlar. Hatto, yoshlik davrlarida musiqa maktabida g'ijjak sinfidagilarga dars berganlar. Zamonaviy san'at yo'nalishida yaratgan ishlari mutaxassislar tomonidan yaxshi baholangan. Kino va foto san'atiga bo'lgan muhabbati tufayli 1985-yilda "Sitora" xalq havaskorlik kinostudiyasi va 2003-yilda uning qoshida fotogalereya tashkil etdilar. Hozirda ushbu galereya "albatta borish lozim" tavsiyasi bilan ko'plab xorijiy davlatlarning turistik qo'llanmalariga kiritilgan. U yerda otam va mening ishlarim bilan bir qatorda, iste'dodli fotograflar Nuriddin Jo'rayev, Zilola Saidova va boshqa buxorolik fotograflarning ijodiy asarlari jamlangan. Otam yaratgan Buxoro fotomaktabining asosiy prinsipi haqiqat va hayotni qanday bo'lsa, shundayligicha ko'rsatishdan iborat. Dadam va shogirdlari ijodida xalqning madaniyati hamda an'analariga bo'lgan alohida qarash, etnografik mavzu, odatiy hayot tarzi, uning yorqin portret chehralari, tarixiy-madaniy muhit, marosim va udumlar, tashvish va quvonchlar aks ettirilgan. Fotoishlarning ba'zilari kishini quvontirsa, ba'zilari fikrlashga, hayotning ayrim lahzalariga boshqacha nazar bilan qarashga undaydi.

“OCHIQ” KO‘Z VA SEZGI

Bizning hovlimiz Buxoroning qadimiy uylaridan bo‘lib, o‘tgan asrning boshlarida Buxoro uysozlik an’analarining eng ilg‘or uslublari asosida qurilgan. Tarixiy bo‘lganligi uchun ham muzeyga o‘xshab ketadi. Oilamiz bu uyda 52 yildan buyon yashaydi. Bobomning vasiyatlari bo‘yicha hovlini asl holatida saqlab kelyapmiz. Dadam uyimizda 2019-yilda san’at ahli uchun oilaviy mehmonxona tashkil qilib, uni “ART USTO” deb atadi. U kishining barcha sa’y-harakatlari Buxoroda san’atni rivojlantirish, yoshlarnining qalbini san’at bilan ta’sirlantirish va ularni qo‘llab-quvvatlashdan iborat edi. Dadamning o‘zgacha bir qarashlari bor edi: “sahnalashtirilgan” suratlarni yoqtirmas, fotografiya bu real hayotdan qirqib olingan bir lavha deb hisoblardilar. Masalan, o‘zim tushirgan suratlarning nafaqat o‘z-o‘zimga, balki boshqalarga yoqishi uchun ular ham ma’no, ham kompozitsiya jihatidan mukammal bo‘lishi lozim. Bunga erishish shunchaki bo‘lavermaydi, albatta. Bu uchun iste’dod bilan bir qatorda fotoapparatning texnik imkoniyatlari, yorug‘lik va soya, rakurs, kompozitsion jihatlarni yaxshi bilish, kerakli vaqtda kerakli joyda bo‘lish lozim. Shu o‘rinda “hayratdan yoqa ushlatadigan suratlarga fotografning mehnati ko‘proq sababmi yoki fotoapparatningmi” deb so‘rovchilarga javobim: agar u yaxshi fotograf bo‘lsa, fotokamera markasi ahamiyatsiz. Dadam aytganlaridek, asosiysi, fotografning ko‘zi doimo “ochiq” bo‘lishi, o‘ziga zarur lahzani oldindan seza bilish qobiliyati muhim. Yaqinda dadamning eski plyonkali “FED 5V” fotoapparatida bir nechta kadrlar olib ko‘rdim. Hayratda qoldim, bilasizmi, plyonkada olganimda unda raqamli kameralardan ko‘ra hayotiylik, his-tuyg‘u, emotsiyalarni bir necha barobar ortig‘i bilan ifodalanganini sezdim.

FOTOTSURATLARIMDA LO'LILAR HAYOTI

Ayrim insonlar o'ylaganidek lo'lilar hayoti ijodimda unchalik katta o'rin egallamaydi, ammo... dadam 30 yildan ortiq "Kichik xalqlarning Buyuk Ipak yo'lida omon qolishi" nomli fotoloyiha ustida ishlaganlar. U ikki qismdan iborat bo'lib, Buxoro yahudiylari hamda Markaziy Osiyo lo'lilari hayotiga bag'ishlangan. Dadamning kasbini davom ettirayotgan ekanman, u kishining loyihalarini ham davom ettirishni burchim sanayman. Aslini olganda, lo'lilarning hayot tarzi o'zgacha, sivilizatsiyaning ba'zi ne'matlaridan foydalanmay eskicha yashashi, o'ziga xos urf-odat va udumlarni saqlab kelganligi meni doim qiziqitirgan. Yana bir gap, ijodimda soyalar muhim o'rin tutadi. Ular mening xayollarim, falsafam. Xoh u shamolda tebranayotgan daraxtning soyasi bo'lsin, xoh biror odam yoki binoning ko'lankasi, yo bo'lmasa minoraning aksi - bu o'zgacha bir tasvirga va ta'sirga ega unsur.



BIZ VA DUNYO

O‘zbek fotografiyasi jahon fotografiyasining bir qismi, uni ayri tushunish kerak emas. Chet ellarda fotografiyaning va fotografning mavqei bizdagiga nisbatan ancha baland. U yerda ko‘plab fotojurnallar, fotoalbomlar nashr etiladi. Fotomuharrirlar, fototanqidchilar faoliyat olib boradi. Foto bo‘yicha internet nashrlar juda-juda faol. Ko‘plab fotoagentliklar mavjud, fotografiyaning turli janrlari bo‘yicha tanlovlar, festivallar, ko‘rgazmalar uyushtiriladi. Hatto fotoloyihalarni amalga oshirish uchun grantlar ajratiladi. Bunaqa muhit odamlarning mazkur san’atni tushunishi va qadrlashi uchun yetarlicha sabab bo‘la oladi. Bu holatni o‘zimizda ham bo‘lishini istardim.



BUXORONING IJODIY KAYFIYATI

Ona shahrim Buxoroning o‘rni ijodkor ahli uchun bo‘lakcha. U o‘zining salobati, me’moriy obidalari, tor ko‘chalari, beg‘ubor va sofdil insonlari bilan kishini ijod qilishga undaydi. Buxoroda o‘zbek kinochilari bilan bir qatorda, Rossiya, Gollivud, Bollivud kabi ko‘plab kino ustalari tomonidan ajoyib filmlar suratga olingan. Ayni shu jarayonlarga ko‘p guvoh bo‘laman, avvalidan oxirigacha kuzataman, qiziqishim yana-da ortadi. Shundan ruhlanib, hatto jo‘ralarim bilan havaskorona filmlar ishlab, festivallarda qatnashib ko‘rganmiz. Bir qator respublika va xalqaro tanlovlardan yuzimiz yorug‘ bo‘lib qaytganmiz.

O‘smirlik davrlarimda hali shunaqangi filmlar yaratib, “Oskar” mukofotini qo‘lga kiritaman, deb orzular qilardim... Ochig‘i, hamon film olish niyatim bor, lekin mukofot uchun emas. O‘ylaymanki, film yaratish uchun faqatgina iste’dod kifoya qilmaydi, hayotiy tajriba ham zarur.

Otash YASHIN yozib oldi

BEHZOD BOLTAYEVNING FOTOGALEREYASIDAN NAMUNALAR

IMKONIYATI CHEKLANGANLARNING BITIM IMZOLASH TARTIBLARI

Har qanday demokratik jamiyatda kishi o'z huquqlaridan erkin foydalanishi zarur, xoh u imkoniyati cheklangan bo'lsin, xoh sog'lom kishi. Savol tug'ilishi tabiiy: ijtimoiy-huquqiy jarayonlarda imkoniyatlari jismonan cheklangan insonlar (masalan, ko'zi ojiz yoki qulog'i eshitmaydiganlar) ning hujjat ishlari, o'zaro bitimlar tuzishdagi ishtiroki qay tartibda tashkil etiladi?

Bunga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-noyabrda tasdiqlangan 726-sonli "Notariuslar tomonidan ayrim notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi ma'muriy reglamentlarni tasdiqlash" haqidagi qaroridan javob topish mumkin. Deylik, ko'zi ojiz yoki qulog'i og'ir insonlar bilan notarial bitim tuzishda qanday yo'l tutiladi? Qarorga ko'ra, bitimni rasmiylashtirishni so'rab kar-soqovlik nuqsoni (kar-soqov, kar, qulog'i og'ir, zaif eshituvchi), ko'zi ojiz (ko'r, zaif ko'ruvchi) bo'lgan shaxs murojaat qilsa hamda u savodsiz bo'lsa, bitimni tasdiqlash paytida u bilan muomala qila oladigan va bitimning mazmunini uning xohish-irodasiga muvofiq ekanligini o'z imzosi bilan tasdiqlovchi surdo yoki tiflo tarjimon hozir bo'lishi shart.

Agarda notarius kar-soqovlik nuqsoni bor fuqarolar bilan muloqot qila olsa va ko'zi ojiz fuqaro uchun mo'ljallangan moslama bilan ishlay olsa, unda surdo yoki tiflo tarjimonning ishtiroki talab etilmaydi. Bu holatda notarius o'zi tomonidan jismoniy nuqsoni mavjud bo'lgan fuqarolar bilan shaxsan muloqot qilganligi haqida bitim matni va tasdiqlovchi yozuvida yozib qo'yadi.

Murojaat qiluvchi bitimni o‘z qo‘li bilan imzolay olmasa, bitim uning topshirig‘iga ko‘ra, uning o‘zi va notarius hozirligida boshqa fuqaro tomonidan imzolanishi mumkin. Bunda notarial harakatni amalga oshirishni so‘rab murojaat qilgan fuqaroning hujjatni o‘z qo‘li bilan imzolay olmaganligi sabablari hujjat matniga va tasdiqlovchi yozuvga yozib qo‘yilishi lozim.

Notarius mazkur harakatlarni amalga oshirishda hujjatni imzolagan fuqaroning, surdo yoki tiflo tarjimonning imzosi haqiqiyligini shahodatlashni alohida notarial harakat sifatida ro‘yxatga olmaydi.

Istalgan bir shaxs hujjatni imzolovchi fuqaro, surdo yoki tiflo tarjimon sifatida notarial harakatni amalga oshirishda ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Surdo tarjimonning vakolati unga O‘zbekiston Respublikasi karlar jamiyati tomonidan va tiflo tarjimonning vakolati unga O‘zbekiston Respublikasi ko‘zi ojizlar jamiyati tomonidan berilgan ishonchnoma va xizmat guvohnomasi orqali aniqlanadi.

Kar-soqovlik nuqsoni bo‘lgan hamda muomala layoqatiga ega bo‘lgan savodli fuqaro notarial harakatlarni amalga oshirishni so‘rab murojaat qilsa, bitim uning o‘zi va surdo tarjimon tomonidan imzolanishi mumkin.

Kar-soqovlik nuqsoni bo‘lgan, muomala layoqatiga ega bo‘lgan, biroq surdo tarjimon bilan muloqot qila olmaydigan savodli fuqaro o‘z imzosi bilan bitim mazmuni o‘zining xohish-irodasiga muvofiq ekanligini notarius bilan yozma ravishda bildiradigan bo‘lsa, notarial harakatlarni amalga oshirishda surdo tarjimonning ishtiroki shart emas. Ushbu yozishmalar bitim bilan birga tikib qo‘yiladi. Bitimni imzolashdagi ayni jarayonlar audio va video-yozuv vositalaridan foydalanilgan holda amalga oshiriladi. Bu esa jarayonlarning shaffof va haqqoniyligini ta’minlaydi.



BITIMNI IMZOLASHDAGI AYNI JARAYONLAR AUDIO VA VIDEOYOZUV VOSITALARIDAN FOYDALANILGAN HOLDA AMALGA OSHIRILADI

Agar notarial harakatni amalga oshirishni so‘rab murojaat qilgan fuqaro savodsiz, ko‘zi ojiz bo‘lsa yoki qandaydir sabablar tufayli ko‘zi yaxshi ko‘ra olmasa, shuningdek kasalligi tufayli bitimni o‘qiy olmasa, notarius unga hujjat matnini ovoz chiqarib o‘qib beradi va bu haqda hujjat matnida va tasdiqlovchi yozuvda qayd etadi. Tarjimon yoki surdo tarjimon yoxud tiflo tarjimon hujjat tarjimasini noto‘g‘ri yoki yolg‘on tarjima qilganligi uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishlari haqida notarius tomonidan ogohlantiriladi va bu haqda hujjat matnida ko‘rsatiladi.

Imkoniyati cheklangan insonlar huquqiy erkinliklardan cheklangan emas, ularga tegishli tartibda ko‘mak beriladi. Har bir notarial harakatlar, hujjat imzolash ishlari audio va video tarzda yozib olinishi ham ishonchlilikni ta’minlaydi. Aslini olganda, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda duch kelishi mumkin bo‘lgan tushunmovchiliklar va savollarga tegishli hujjatlar, qonun va qarorlarda batafsil ma’lumotlar keltirilgan. Ularni o‘rganish va huquq-majburiyatlarini anglash har bir fuqaroning zimmasidagi muhim vazifa.

Behzod RAHMONOV
huquqshunos

QADIM MOJARO TAHLILI

O'zbekiston jamiyatida oila tuzilishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zgarmas an'analarga asoslangan bu tuzilishlar, ayniqsa qaynona va kelin o'rtasidagi munosabatlar, turli xil muammolar va salbiy holatlar bilan ham bog'liq. Ushbu maqolada qaynona va kelin o'rtasidagi salbiy munosabatlarning sabablari, oqibatlari va ularni qanday hal qilish mumkinligi batafsil tahlil qilinadi.

AN'ANAVIY ROLLAR VA TALABLAR

O'zbek oilalarida qaynona va kelin o'rtasidagi munosabatlar ko'pincha an'anaviy rollar va kutishlar bilan bog'liq. Qaynona, odatda, o'zini oilaning boshqaruvchisi sifatida his qiladi va kelinni ham shu doirada tarbiyalashga harakat qiladi. Bu esa kelin uchun ko'pincha yangi va noqulay vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Kelinning yangi oilaviy muhitga moslashishi va qaynona tomonidan beriladigan talablar uning hayotini murakkablashtirishi mumkin.

Qaynona ko'pincha o'zining avtoritar mavqeini saqlab qolishga intiladi. Bu holatda kelin uchun o'z fikrini ifoda etish yoki mustaqil qaror qabul qilish qiyin bo'ladi. Qaynona va kelin o'rtasida noto'g'ri kommunikatsiya, tushunmovchiliklar va ko'pincha janjallarga olib keladi. Kelin o'z his-tuyg'ularini ifoda eta olmasligi, qaynona esa uning xatti-harakatlarini noto'g'ri tushunishi mumkin.

Avlodlararo tafovutlar ham qaynona va kelin o'rtasidagi salbiy munosabatlarning muhim sababi hisoblanadi. Qaynona va kelinning turli avlodlarga mansub bo'lishi ularning hayotga bo'lgan qarashlari, qadriyatlari va urf-odatlari orasidagi farqlarni keltirib chiqaradi. Bu tafovutlar ko'pincha o'zaro tushunmovchiliklarga va nizolarga olib keladi.

PSIXOLOGIK MUAMMOLAR

Qaynona va kelin o'rtasidagi salbiy munosabatlar kelinning psixologik holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Stress, tushkunlik va o'ziga bo'lgan ishonchsizlik kabi holatlar kelinning hayotida yuzaga kelishi mumkin. U doimiy ravishda tanqid va qattiq nazorat ostida yashashi natijasida psixologik bosimga tushishi mumkin.

Salbiy munosabatlar butun oilaning ichki muhitiga ta'sir qiladi. Oilada doimiy nizolar va kelishmovchiliklar yuzaga kelishi natijasida oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar yomonlashadi. Er va kelin o'rtasidagi munosabatlar ham bu jarayondan zarar ko'radi, bu esa oilaviy barqarorlikka putur yetkazadi. Buning natijasida kelin o'zini jamiyatdan chetda qolgan, ijtimoiy izolyatsiyaga tushgan holda his qilishi mumkin. Bu esa uning do'stlari va qarindoshlari bilan bo'lgan munosabatlariga ham ta'sir qiladi. Kelinning ijtimoiy faoliyatlari cheklanishi natijasida u o'zini yolg'iz va yordamga muhtojdek tuyadi.

MULOQOTNI YAXSHILASH

Salbiy munosabatlarni hal qilishning eng muhim yo'li - bu muloqotni yaxshilashdir. Qaynona va kelin o'zaro ochiq va samimiy muloqot orqali bir-birining fikrlarini va his-tuyg'ularini tushunishga harakat qilishlari kerak. Bu orqali ko'p tushunmovchiliklarning oldini olish mumkin bo'ladi. Muloqotni yaxshilash uchun oila a'zolarining bir-biriga nisbatan hurmatli va ehtiyotkor bo'lishlari muhimdir.

Ba'zida qaynona va kelin o'rtasidagi muammolarni hal qilish uchun professional psixologik ko'mak zarur bo'ladi. Psixolog yoki oilaviy maslahatlar orqali o'zaro munosabatlarni yaxshilash, stress va tushkunlikni kamaytirish mumkin. Psixologik ko'mak oila a'zolariga bir-birini yaxshiroq tushunishga va o'zaro ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

Madaniy va ma'rifiy tadbirlar orqali oila a'zolari orasidagi munosabatlarni yaxshilash mumkin. Masalan, oilaviy seminarlar, treninglar yoki boshqa ma'rifiy tadbirlar orqali qaynona va kelin bir-birining hayot tajribasi va qadriyatlarini yaxshiroq tushunishlari mumkin. Bu tadbirlar o'zaro hurmat va tushunishni oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

O'zbek jamiyatida qaynona va kelin o'rtasidagi salbiy munosabatlar ko'p hollarda an'anaviy rollar, avtoritarizm, avlodlararo tafovutlar kabi omillar bilan bog'liq. Bu munosabatlar kelinning psixologik holatiga, oilaviy barqarorlikka va ijtimoiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Salbiy munosabatlarni hal qilish uchun muloqotni yaxshilash, psixologik ko'mak olish va madaniyva ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish zarur. Ushbu chora-tadbirlar qaynona va kelin o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga, oilaviy barqarorlikni saqlashga va jamiyatdagi ijtimoiy farovonlikni oshirishga yordam beradi.

Manbalar asosida Manzura ABDUHAKIMOVA tayyorladi

ATROFIMDAGILARNING O'RTACHA QIYMATIMAN..."

O'zim haqimda

Ismim Sardor. Men ham oddiy bir o'zbek farzandiman.
Bog'chadan to litseyni tamomlagunimcha aniq fanlarga ixtisoslashgan rus sinflarida o'qidim, garchi uyimda hech kim rus tilini bilmasa ham. Hozir ota-onamning bu strategik qaroridan juda minnatdorman. Chunki metamatika men uchun boshqa ilmlarni o'rganishda ildiz bo'lib bergan. Shu-shu, chet tillari va tabiiy fanlarga qiziqishim ortib ketdi. Ayni paytda "Play to Care" nomli kompaniya bilan shartnoma tuzib, tadqiqot amaliyotchisi sifatida ish olib boryapman. Ya'ni katta jamoaning bir bo'lagiman. Batafsil aytadigan bo'lsam, ishimiz autizm kasalligini sun'iy idrok orqali aniqlashga qaratilgan.

AUTIZM

Koreyaning Seongnam shahrida yashayman. Ishxonam Silikon vodiysiga juda yaqin. Kuni bo‘yi tadqiqotlar bilan mashg‘ul bo‘laman. Bugun dunyoda tug‘ilayotgan har yuz chaqaloqdan bittasida autizm kasalligi aniqlanmoqda. Bolalarda bu kasallik qancha erta aniqlansa, muolajalar shuncha tez natija bera boshlaydi. Avvalroq aytganimdek, ushbu dolzarb muammoga yechim topish uchun g‘ayrat bilan ishlamoqdaman. Bilamanki, natijaga erishish bolalar uchun global miqyosda foydali bo‘lishi bilan birga, men uchun ham bor imkoniyatlarimni ko‘rsata olishga maydon yaratadi.

ILMNI QO‘LLAB-QUVVATLAYDI...

Hozirda Janubiy Koreyaning Woosong universiteti 3-bosqich talabasiman. Bir yil O‘zbekistonda turib, onlayn tahsil oldim. Ikkinchi kursdan boshlab Koreyada o‘qishga qaror qildim. Universitetim nufuzi ham unchalik baland emas, qanday-dir top reytinglardan o‘rin olmagan. Shunchaki Koreyada juda ham ko‘p bo‘lgan OTMlarning biri. Uning menga eng yoqqan jihati shuki, ilmni qo‘llab-quvvatlaydi. Ya’ni universitet sifatida o‘z vazifasini bajara oladi. A’lo baholarga o‘qigan talabalarga 100 foizlik grant ajratilgan. Masalan, talaba semestr davomida tanlagan barcha fanlarini A+ reytingi bilan yopsa, keyingi semestr uchun 100 foiz grantni qo‘lga kiritadi. Koreyada esa bunday talabalarni ko‘plab uchratish mumkin. Men, shunchaki, atrofimdagi odamlarning o‘rtacha qiymatiman, xolos!

XOS AUDITORIYA

Kunim, asosan, texnologiyalar qarshisida o'tadi. Python, OpenCV, PyTorch dasturlari bilan "til topishish"ga harakat qilaman. Ishdan tashqari, kitob varaqlashni va she'r mutolaasini yoqtiraman. Ayniqsa, Sergey Yesenindan. Bu yil arab tilini o'rganishni ham maqsad qilganman, shu bois qolgan bo'sh vaqtlarimda kurslarga qatnashaman.

Bu yerda ruhiyati o'zimga yaqin va tirishqoq odamlar bilan do'st tutindim. Tajribalarimni oshirish maqsadida har xil konferensiyalar va tadbirlarda faol qatnashdim. Bilimli va shijoatli talabalar bilan birga musobaqalarda ishtirok etdim. Umumiy qilib aytganda, atrofimga xos auditoriya yig'ib oldim.

O'ZINGIZNI KO'RSATING...

Chet elda yashayotganimga 2 yilcha bo'ldi. Bu vaqt ichida o'zim haqimda, dunyo haqida ko'p narsalarni o'rgandim va hali o'rganishim kerak bo'lgan bilimlarning ko'p ekanligiga ham amin bo'ldim. Eng muhim deb topgan ikkita xulosalarim bilan bo'lishmoqchiman. Birinchisi, qiziquvchanlik juda muhim. Qiziqarli tajribalar bo'lsa, albatta, sinab ko'ring va tadbirlarda faol qatnashib, o'zingizni ko'rsating. Bularning barchasi sizni o'sishga undaydi. Ikkinchisi, shijoatli va mard odamlar bilan do'st bo'lishdan ko'ra yaxshiroq munosabat ko'rmadim. Ular istaklaringiz yo'lida sizga hamroh bo'la oladi. Lo'nda qilib aytganda, har bir yangi tajriba va chin do'stlik hayot yo'limizdagi rang-barang mozaikani tashkil etadi.

“QOVUN QOVUNDAN RANG OLADI”

“Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqadi”. Shu maqolni hamma eshitgan bo‘lsa kerak. Bu yerda gap faqat “qora qozonlar” va yomon insonlar haqida emas, albatta. Menimcha, atrofingdagi insonlar, yaqinlaring, sen tanlagan auditoriya hayotingga ta’sir etishini ham nazarda tutgan dono xalqimiz. Ya’ni “Qovun qovundan rang oladi”.

Muvaffaqiyatli hayot qurish uchun atrofingizga o‘zingiz istagan kelajakni aks ettiruvchi odamlarni yig‘ing. Istaklaringiz yo‘lida olis-olis marralarni ko‘zlashdan qo‘rqmang. O‘tirgan odamning yotgisi, yotgan odamning esa uxlagisi keladi. Umrni g‘aflatda o‘tkazishdan qoching. Yiqilganda o‘rningizdan turib, davom eting, chunki harakatlar, albatta, o‘z natijasini beradi.

Sardor ABDIRAYIMOV (Janubiy Koreyadan “O‘zbekiston talabasi” uchun maxsus)

G'AYRITABIIY

Qonli sharsharalar

Agar bir tepalikda kuniga yuzlab odamlar qatl qilinsa, qonli sharshara hosil bo'lishi mumkin. Antarktidadagi "Qonli sharshara"larni ko'rganingizda xuddi shunday tasavvur uyg'onishi tabiiy. Ammo u mutlaqo boshqa yo'l bilan vujudga kelgan. Xo'sh, ushbu materikda faqatgina olimlar va pingvinlar yashar ekan, unda "Qonli sharshara"lar qanday paydo bo'lib qoldi dersiz? Albatta, zamonamizning tinib-tinchimas olimlari bu savolga javob topib ulgurishgan. Aniqlanishicha, sharsharalar tubida temirga boy ko'l mavjud. Undagi suv 400 metr chuqurlikda joylashgan bo'lib, 2 million yil davomida temir hamda oltingugurt bilan oziqlangan sirli mikroorganizmlardan rang olgan. Ushbu g'aroyib sharsharalar 1911-yilda geolog olim Tomas Teylor tomonidan izlab topilgan.

Reystrek-Playya

Amerika Qo'shma Shtatlarida joylashgan bu maskanni "Ajal vodiysi" ham deyishadi. Reystrek-Playya qurigan ko'li o'rnidagi toshlarning daqiqasiga 2-2,5 metr harakatlanishi va o'zidan mutlaqo iz qoldirmasligi g'ayritabiiydek tuyiladi, albatta. Bu jarayon XX asrgacha ilohiy hodisa deb hisoblangan, 2014-yilda esa olimlar bu jumboqni yechishga bel bog'lashdi. Buning uchun tadqiqotchilar datchik va fotokamera o'rnatilgan 5-15 kilo og'irlikdagi toshlarni mazkur hududga qo'yib kuzatgan. Tadqiqot natijasiga ko'ra, toshlarning bunday harakatlanishiga ingichka (bir necha millimetr), ammo uzun muzlar sababchi ekani, toshlar shu muz bo'ylab harakatlanishi aniqlangan.

QO'RQINCHLI

Iblis dengizi

Bu dengizni Bermud uchburchagining noma'lum "qarindoshi" sifatida ko'rishingiz ham mumkin. Negaki, Iblis dengizi haqidagi mish-mishlar ancha qiziqroq bo'lsa-da, u haqida ko'pchilik insonlar ma'lumotga ega emas. U Yaponiyaning janubiy qirg'oqlari va Guam o'rtasida joylashgan. Uni faqatgina kemalarning sirli halokati sabab "Iblis dengizi" deyishmaydi. Bu dengizda ko'plab harbiy samolyotlarning signallardan yo'qolib qolishi, noma'lum uchar jismlarning faol harakati doimiy kuzatilib turiladi. Mintaqalarning eng ko'zga ko'ringan olimlari ham hali bu voqealarga izoh topa olishmagan. Yaponiya hukumati esa shunchaki bu suvga tushishni tavsiya qilmaydi.

QIZIQARLI

Qo'rquv ko'prigi

Hindlar uchun muqaddas hisoblangan Rameshvaram orolidagi bir qancha ibodatxonalar nafaqat mahalliy dindorlarni, balki arxitektura shaydosi bo'lgan sayyohlarni ham o'ziga maftun qiladi. Orolga borishning eng oson va arzon varianti poyezddan foydalanish ekaniga qaramay, aksariyat holda odamlar undan ranglari oqargan, qo'rquv aks etgan yuz ifodasi bilan tushib keladi. Yo'lning bir qismini Hind okeani ustidan o'tgan va 1910-yillarda qurib bitirilgan Pamban ko'prigi tashkil qiladi. Bor-yo'g'i 2 kilometr uzunlikdagi bu ko'prik bir qarashda bexavotir tuyilishi mumkin, lekin gap boshqa yoqda. Poyezd ko'prikka yetib kelganda juda ham sekin – soatiga 20 kilometr tezlikda harakatlanadi. Bunda yo'l xuddi oxiri yo'qdek, uzoq tuyuladi. Okeandagi suv tinch bo'lsa, odamlar unchalik xavotirga tushmasligi mumkin, lekin havo o'zgarib, to'lqinlar poyezd oynalariga kelib urilganda ko'plab yo'lovchilar qo'rquvlarini yashira olishmaydi. Lekin bir toifa insonlar bu sayohatdan energiya olishlari haqida aytib o'tishgan. Siz ham shu kabi qiziqarli va energiyaga boy sayohatlarga qiziqsangiz, Hidistonga yo'lingiz tushganda, albatta, Pamban ko'prigidan o'tuvchi poyezdga minib ko'rishni maslahat beramiz!

Manbalar asosida Otabek MADAMINOV tayyorladi

MUROD MUHAMMAD DO'ST

BIR TOYCHOQ XUNI

(Hikoya)



Galatepada G‘uchchi chol quturarmish, degan gap oralab qoldi. Hammaning og‘zida shu: G‘uchchini besar it qopganmish, G‘uchchi quturarmish. Jami ulus gapirganicha bor edi, negakim, Galatepa Galatepa bo‘lib birorta odam zoti quturmagan. Qishloq sho‘rosining keksa kotibi Qosimov domla bayram kunlarida, kolxozning yillik hisobot yig‘inlarida quturgan odamlar haqida gapirgani rost, lekin u sanagan odamlarning bittasini ham quturgan it qopmagan, ularning ko‘pi bosmachi, boy va yana bir balo bo‘lib o‘tgan yot unsurlar, keyin, Qosimov domlaning o‘zi, avomroq kishilar chalkash tushunmasin uchun: “Men buni ramziy ma’noda gapiryapman, o‘rtoqlar!”, deb aytadi.

Abduvohid Odam ikkinchi xotini ham ketib qolganida rosa bir hafta bag‘rini zaxga berib yotuvdi. Uydan ko‘chaga chiqmagan, yemagan, ichmagan, gapirsang gapirmagan – misoli karaxt ilonday bo‘lib yotgan. Uniyam dastlab quturibdi-da, deb o‘ylashgan. Yaqinroq bir qarindoshi (otini aytishmaydi), rosti bilan quturgan bo‘lsa, ko‘p azob chekib o‘tirmasin, degan chog‘i boyaqishning ustida elak tutib, bir chelak suv elagan ekan, lekin Abduvohid Odamga hech korihol bo‘lmagan, qaytaga, sovuq suvdan tani junjikib, o‘rnidan sapchib turgan. Turayotgan mahali tirsagi ilkisroq tegib ketgan ekanmi, Abduvohid Odamning o‘rniga haligi jonachir qarindoshining o‘zi yiqilib tushgan. Uniyam betiga suv sepib hushiga keltirishgan. Keyin bir gal Sattorchaning quturgan itining ustidan ham shu taxlit suv elashgan. Lekin it o‘rnidan qaytib turmagan. Sattorchaning o‘zi itim quturgan ekan, ustidan suv elovdik, tinchgina yotib o‘lib qoldi, deb rosa ikki yil gapirib yurdi.

Xullas, Galatepada quturgan odamlar haqida uncha-muncha gap bo‘lgani bilan, ularni hech kim o‘z ko‘zi bilan ko‘rmagan. Quturgan itlarni ko‘rishgan, quturgan xo‘tiklarni ko‘rishgan. Manzar polvonning sariq novvoschasi quturgan edi – uni ko‘rishgan. Manzar polvon novvoschani halollab qolishga ulgurdi, lekin bozorga olib chiqmadi, insof qildi, yerga ko‘mib qo‘ya qoldi. Keyin bir vaqtlar Galatepada mast nortuyalar ham bo‘lardi. Nortuyalar quturmagan bo‘lsayam, quturgandan kam emasdi. Qirq birinchi yil ekan, Jonuzoq arab Galatepaga ko‘chib kelib, o‘ttizta tuyasi bilan kolxozning pillasini Kattaqo‘rg‘onga tashigan. Galatepa asli o‘troq saroylardan emasmi, karvon qishloqni oralab o‘tganida ismi jon bor – hammasi ko‘chaga tomosha qilgani chiqardi. Karvonning boshida bo‘yniga qo‘ng‘iroq taqqan maydaqadam bir eshak yurguvchi edi, uning ortida – bosh tuya, ustida Jonuzoq yer-u ko‘kka ishonmaydigan chuvakkina arab xotini bilan, keyin yana yigirma to‘qqiz tuya, barisi yukli, barisi zo‘r, har yonda uch-to‘rttadan bo‘taloq, pishqirib, atrofga og‘zidan ko‘piklar sochib, oyoq ostidagi zaminning changini naq samoga ko‘tarib... bu g‘aroyib tomosha uzoqdagi Kattaqo‘rg‘on tarafga yo‘l tortguvchi edi. Jonuzoq arabning o‘zi, ostida oq bo‘z oti, o‘ychan, qiyaga qo‘ngan qirg‘iyday tik, karvon yonida ketardi. Jonuzoqning eshagi ko‘p karvonchi eshak edi. Galatepadan chiqquncha karvonni sal sekin, maromida tortardi, keyin, qishloqning sarhadidan o‘tib, eshakkinaning o‘zi qadamini ildamroq bosardi, uning ortidan karvon ham, cho‘lning yolg‘izoyoq zarang yo‘liga marjonday tizilib olib, yurimini tezlatardi. Ko‘rmagan odamning tushunishi qiyin: bir yoqda qo‘ng‘iroqlar jiringlaydi, bir yoqda tuyalarning o‘rkachi chayqaladi, bir yoqda Jonuzoqning qoragina xotini, dunyo bilan ishi yo‘q, sekin mudraydi... E, ko‘p qiziq tomosha edi! Qishloqdan chiqib bo‘lgach, Jonuzoq karvondan sal orqaroqda qolardi, orqada qolardi-yu, olisdagi qirlarga qarab yakka-yu yagona ashulasini boshlardi:

Ey sorbon, ohista ron, ki oromi-jonam meravad,

On dil ki bo xud doshtam, bo dilistonam meravad...

Shu qo'shig'ini aytganda, Jonuzoq arab ko'p g'am tortguvchi edi. Tarziga qarab turib, bechora arab, garchi forsiyda qo'shiq aytsayam, o'zining arabiy sahrosini, atrofini xurmo o'ragan vohalarini sog'inibdi-da, deb o'ylarding. Lekin shuncha arabiy ma'yusligi bo'lsa ham, Jonuzoq birorta arabcha so'zni bilmasdi. Gapirganda o'zbekchaga tojikchani aralashtiribroq gapirardi.

Galatepada u haqida har hil gaplar yurardi. Birovlar uni urushdan qochib yuribdi, deb ham o'ylagan. Lekin Jonuzoq qo'li-ko'ngli ochiq, ko'p yaxshi arab edi. Keyin o'ttizta tuyasining sharofatidan kolxozga nafi tegardi. Shu sabab hech kim sen urushdan qochib yuribsan-ku, deb yuziga solmagan. Boshqa joyga ham xabar qilishmagan. Sho'roning kotibi Qosimov domla, xabarkashroq odamlarga: Jonuzoqning aft-basharasiga durustroq qaranglar, bu bir yurgan boshi ochiq arab, turgan-bitgani mo'y, shuncha mo'yi bor odamning dum-pumi bo'lsayam ajabmas. Agar uni askarlikka olsa, keyin bu palakat Xudo urib girmonga asir tushsa, ular muning dumini ko'rsa, padarla'nati bir enlik dumining dastidan butun boshli qizil qo'shinni beobro' qiladi-da, deb aytgan. Qosimovga hamma ishongan. Ishonmaslik gunoh edi. Negaki, Qosimov domla ko'p rostgo'y, farishtali odam bo'lib, umrimda bor-yo'g'i uch marta, undayam uqubatli amir zamonasida yolg'on gapirganman, deb naql qilguvchi edi.

Lekin biz salgina "o'tlab" ketdik. Maqsadimiz sari – o'sha tuyalarning o'ziga qaytamiz. Ular ko'klam chiqishi bilan g'irt mast bo'lib qolardi. Bir xillari borki, ko'chaga g'ov bo'lib olib, odam o'tkazmasdi. Jonuzoq arab Galatepada olti yil yashagan bo'lsa, olti bor ko'klamda Jomning cho'liga ko'chib, o'sha yoqda tuyalarning masti tarqashini kutgan.

G'uchchi cholni it qopganidan keyin galatepaliklar Barot Qiyshiqning choyxonasiga yig'ilib, allamahalgacha Jonuzoq arabning tuyalaridan gap-gashtak qilib o'tirishdi. Rahmatli Salim chinoqni eslashdi. Jonuzoqning nortuyasi chap qulog'ini uzib oluvdi, bechora Salim shu bitta quloqsiz o'lib ketdi-ya, deb eslashdi. Keyin gap quturgan xo'tiklarga, ulardan sekin-sekin quturgan itlarga o'tdi. Lekin G'uchchi cholga yetmadi, shart uzilib qoldi. Endi hammaning o'yi G'uchchi cholda edi. Faqat birovi gapirgani ham jur'at qilmadi. Nihoyat, mulla Sunnatning o'g'li Nazar Maxsum chidab turolmadi, ko'nglidagini aytdi: "Tamom! – dedi u. – Endi G'uchchining bolasi zanjir izlasin!.."

Shu gapni yetkazishganda G'uchchi chol avval beg'arazgina kuldi, keyin jiddiy tortdi, Nazar Maxsumni "yag'ir xo'tikcha", deb atadi, keyin yana bir marta, bu gal sal og'rinibroq kuldi.

Nazar Maxsumning bashoratidan keyin odamlar G'uchchi cholning uyiga serqatnov bo'lib qolishdi. Kimsa borki, kelib, undan hol so'raydi. Shundan G'uchchi chol sal sergak tortdi. Avval u itning qopganini o'ziga o'y qilib o'tirmagan edi: endi bu bir it, it bo'lgandan keyin itligini qiladi, huradi, qopadi... Yarasi ham arzimas edi, bitib ketar, dedi-yu, do'xtirga ham bormadi. Endi qarasa, yo'q, hech bo'lmaydigan, hamma uni ko'rgali kelyapti, keladi-yu, biror sinoati bormikin, rostdan ham quturganmikin, deb ko'zlaringga qarab turadi. Ular gap so'raydi, sen bo'lsang, xuddi aybdorday tiling kalimaga kelmaydi, go'yo seni rostdan quturgan it qopgan-u, lekin sen nomardlik qilib shuncha kelgan musulmonni aldab o'tiribsan! E, munaqada quturgan it qopmasayam quturib ketasan!..

G'uchchi chol oshnasi Ibodullo Maxsumga gap soldi: "Siz yonimda o'tirsangiz, Maxsum, – dedi u. – Siz bo'lsangiz, kelgan birov menga oshirib gapirolmaydi..." Ibodulla Maxsumning tomorqada oz-moz ishlari bor edi, lekin jo'rasining sazasini o'ldirolmadi. Xotini bilan andak g'ijillashib olgach, G'uchchi cholning uyiga jo'nadi.

Mana, to‘rt kundirki, do‘stining uyida kunni kech qiladi. U kelgandan keyin mehmonlar ham juda ozayib qoldi. Kelgani ham itdan emas, boshqa chet-chaqadagi narsalardan gapiradi. Birovlari mutlaqo gapirmaydi, tiliga tushov tushib, Ibodulla Maxsumning rivoyatlarini eshitadi, keyin hech gap-so‘zsiz, ko‘ngillari qisir bo‘lib qaytib ketadi.

Payshanba kuni odamlarning qadami uzildi. Kechgacha behuda mehmon kutdilar, keyin, shom mahali, Ibodullo Maxsum aytdi: “Mening mehmonligim cho‘zilib ketdiyov, aka?” G‘uchchi chol yurak oldirib qo‘ygan ekan, ko‘nmadi: “Yana ikki kun mehmon bo‘p keting, Maxsum”, deb yalindi. Ibodullo Maxsum o‘ylab qarasa, oshnasi haq, hozircha hol so‘rab kelganlarning hammasi qiziqqanidan kelgan, qasd qilganidan emas. G‘uchchi quturganmish degan mish-mishni eshitgan-u ichiga sig‘dirib o‘tirolmagan. Ibodullo Maxsum bu gapni kim tarqatganini bilolmay garang edi. Uzunquloq gap kimningdir og‘zidan chiqqandirki, ulusning orasiga tushibdi? Tarqatgan odam bo‘lmasa, mish-mishni Xudo tarqatadimi? Yo‘q, u hali keladi. Kelmasdan, G‘uchchi cholning ahvoliga maza qilib tomosha qilmoqdan boshqa iloji yo‘q — ichi qarolarning taomili shu.

Ibodullo Maxsum kutgan odam shanba kuni choshgohda keldi. Bu zamon ikki oshna bog‘ning to‘ridagi chorpoyada qiroat qilib o‘tirardi. G‘uchchi chol kelgan odamni sezmadi, lekin Ibodullo Maxsum sergakroq edi, darchaning ochilganini eshitdi-yu o‘qiyotgan kitobidan boshini ko‘tardi. “Keldi, aka, – deb shivirladi u. – Kelarini biluvdim, aka”. G‘uchchi chol darcha tarafga qaradi, qaradi-yu To‘raboyni ko‘rdi. “Ketmang, Maxsum, – dedi u oshnasiga. – Bu dayus yomon, menga zo‘rlik qiladi...”

Darchadan kirgan odam, ya’nikim To‘raboy jussasi kichik, dumaloqqina bir odam edi. Yuzi qora, soqoli oppoq, soqoli oqligidan yuzi battar qora bo‘lib tuyuladi. Mulla Doniyorning aytishicha, bu odamning ichidagi qorasi yuziga tepgan ekan. Keyin u ikki dunyodan ham umidini uzgan bir do‘zaxi ekan, oxirati yo‘qligini o‘zi ham bilarkan, shu barobar, musharrafi jannat musulmon bandalarning ko‘zlariga o‘zgacha bir qabohat bilan, ya’nikim, ilon avrash qilib tikilarkan... Qabohati bormi, yo‘qmi va magar bo‘lsa, nechog‘lik va ne turfa, bunisini Xudo biladi, lekin To‘raboy tikilishning hadisini olgan – ixlos bilan tikilsa, o‘tirgan joyingga mixlab qo‘yganday bo‘ladi. O‘ziyam qarashining zo‘rligini biladi, chini bilan tikilsam, toshni yoraman, deb o‘ylaydi.

Nasr javonidan

Xullas, shanba kuni choshgohda To'raboy keldi. G'uchchi chol bilan Ibodullo Maxsum uning istiqboliga chiqmadi. Uchovi ham iyaklarini silkitib, soqolsalom qilgan bo'lishdi. To'raboy xashaki olmalar ostidan yo'lchadan mayda qadam bosib keldi. Chorpoya yonida turgan oftobadan suv quyib, belbog'iga artindi. Peshvozning sovuqligidan ko'ngli lat yedi, lekin sezdirmadi, qaytaga o'ziga o'zi suv quya turib jilmaygan bo'ldi. Keyin qo'l artgan qiyiqchasini chap yelkaga tashlab, chorpoyaga chiqdi. Ibodullo Maxsum andek surilib, bo'shatgan joyda chordona qurib, yuziga fotiha tortdi-da, biqiniga bolish oldi... Bir muddat jim o'tirishdi. Keyin G'uchchi chol sekin gap ochdi:

– Keling, To'raboy, – dedi u sekin.

– Keldik, – dedi To'raboy.

– Nega keldingiz? – deb so'radi Ibodullo Maxsum.

Bu xil navozishdan so'ng G'uchchi chol o'zining mezbonligini esladi. O'ng tarafga qo'zg'algan bo'lib Ibodullo Maxsumning o'ngiridan sekin pastga bosdi. To'raboy buni ko'rib turdi, lekin ko'rmaganga olish o'ng'ayroq edi – ko'rmaganga oldi. Bir ko'ngli Ibodullo Maxsumga bosibroq tikilmoqchi bo'ldi, lekin uning ters o'girilib o'tirganini ko'rib, dog'da qoldi.

– Keldik, – dedi u sal turib.

– Hech ko'rinmaysiz, To'raboy? – deb so'radi G'uchchi chol. – Kecha bozorda ham ko'rinmadingiz. Kasal bo'p qoldimi, deb o'yladik.

– Men kasal bo'lmayman, – dedi To'raboy.

– Sog' odamning hammasi bozorga boradi, – dedi G'uchchi chol.

– Ish ko'p, – To'raboyning javobi muxtasar bo'ldi.

– Ishlayapman deng?.. – gapga qo'shildi Ibodullo Maxsum. – Hech bir tinmadingiz-da, To'raboy! Mana biz, akam bilan qiladigan ishimiz yo'q, o'tgan-ketgandan gaplashib o'tiribmiz.

– O'tgan-ketgandan gapirgan yaxshi, – dedi To'raboy, keyin G'uchchi cholning chopon tagiga yashirilgan qo'liga tikilibroq qaradi. – Machitdan kelyapman. Machitda bir xil gaplar bo'ldi.

Ibodullo Maxsum To'raboyning quturgan itdan gap ochishi tayinligini sezdi-yu, gapni boshqa tomonga burdi:

– Machitda odamlar gaplashmaydi, To‘raboy, machitda namoz o‘qishadi.

– Yo‘lda gaplashdik, – dedi To‘raboy. – Machitda namoz o‘qidik, gapni yo‘lda gaplashdik.

– Munisi boshqa gap, – dedi Ibodullo Maxsum. – Magar gaplashgan bo‘lsangiz, yolg‘iz emas ekansiz. Yana kimlar bor edi?

– Hammasi bama’ni odamlar, – dedi To‘raboy.

– Kim ekan? – qiziqsindi Ibodullo Maxsum.

– Mulla Nishon, – dedi To‘raboy, – keyin Nazar Maxsum bor edi.

– Mulla Nishon savodsiz odam, – dedi Ibodullo Maxsum. – Haftiyakni bitirmay madrasadan qochib kelgan. Nazar Maxsum yolg‘onni ko‘p gapiradi, muning ustiga to‘ng‘iz go‘shti yegan.

– Yo‘g‘-e, u to‘ng‘iz go‘shti yemagandir, Maxsum, – G‘uchchi chol oshnasining niyatini anglamadi chog‘i, sekin e’tiroz qildi. – To‘ng‘izning go‘shti harom-ku, Maxsum!..

– Nazar Maxsum to‘ng‘iz go‘shti yegan, – o‘jarlik bilan takrorladi Ibodullo Maxsum.

To‘ra Qora yengilganini payqab talvasaga tushdi.

– Mulla Doniyor bor edi, mulla Doniyor bama’ni odam-ku! – dedi u fig‘oni chiqquday bo‘lib.

– Mulla Doniyor bama’ni odam, – dedi Ibodullo Maxsum. – Lekin u indamay o‘tirgan. Mulla Doniyor ahmoq odamlarning gapiga qo‘shilmaydi. O‘zingiz ayting, u sizga gap qo‘shdimi?

– Men gapirganim yo‘q, – dedi To‘raboy.

– Balli! – dedi Ibodullo Maxsum. – Odamlarga gap bo‘lsa bas, yo‘qdan yo‘ndirishadi. G‘uchchi akamni mo‘ltonidan adashib qolgan bir tozi andak tirnaganday bo‘luvdi, shuniyam gap qilishgan chiqar?..

– Gap qilishdi, – To‘raboyning tan olishdan o‘zga chorasi qolmagan edi. – Har kim har xil gapiradi, Maxsum. Lekin men gap qo‘shmadim.

– Ma’qul, bu ishingiz ma’qul, To‘rabey!.. – Ibodullo Maxsum uni maqtab qo‘ydi.

Maqtov To‘raboyga ko‘p yoqmadi. Ichida, meni go‘dakka o‘xshatib laqillatdi, degan xayolga bordi, jahli qo‘zg‘adi. Ibodullo Maxsum uning tek qolganini ko‘rib, endi xavf o‘tdi, degandek, oshnasiga qarab iljaydi. G‘uchchi chol buni rag‘bat tushunib, yarador qo‘lini chopon chokidan chiqardi. To‘raboy uning salla yirtig‘i bilan o‘ralgan qo‘lini ko‘rdi. Ko‘zlarida bir nima yilt etganday bo‘ldi-yu, tag‘in o‘chdi. G‘uchchi chol o‘zining sal shoshganini payqadi. Lekin endi qo‘lni qaytadan yashirish foydasiz edi...

* * *

G‘uchchi chol quturmaganini ko‘rsatmoq istab, o‘zicha bama’ni gaplardan gapirmoqchi bo‘ldi. Lekin bama’ni gap deganlari hadeganda tiliga kelavermadi. Shunda u yarasi arzimasligini namoyish qilmoq bo‘lib, chap qo‘li bilan ko‘rpachaga tayandi. Qo‘li qattiq og‘ridi. Shunday og‘ridiki, manglayiga sovuq ter chiqib ketdi. To‘raboy uning ahvolidan ogoh bo‘lib, mamnun iljaydi, so‘ng tag‘in jiddiy tortdi, kishi bilmas quvonch bilan hol so‘radi:

– Yomon tishladimi, akam? Tishiyam ancha botgandir?..

G‘uchchi chol bezovtalandi.

– Itning nasli yomon ko‘rinmovdi, – dedi G‘uchchi chol, – ayb bizning o‘zimizdan o‘tdi.

– Nima balo, siz o‘zingiz tishlagin, deb aytdingizmi?

– Yo‘q, – dedi G‘uchchi chol. – Tishlagin, deb aytganim yo‘q, lekin tishladi.

– Quturgan it gapni bilarmidi!.. G‘uchchi chol bu gapni javobsiz qoldirdi.

– It quturmagan, yaxshi it, – dedi Ibodullo Maxsum.

– Bo‘lmasa, nega tishlaydi? – To‘raboy baralla kulib so‘radi. – Mana, G‘uchchi aka, qarang, qo‘lingizni boylab olibsiz. Itning qopgani rostdirki, siz qo‘lingizni boylabsiz?..

– Maxsumning sallasi... – dedi G‘uchchi chol. Ibodullo Maxsum o‘ng‘aysizlandi. G‘uchchi choldan sal norozi bo‘ldi. Uning boshiga o‘raganidan bo‘lak, uyda yana uchta sallasi bor edi. Oshnasini tozi qopgan kuni buxori sallasidan bir bo‘lak yirtib boylagan, lekin buxori sallamdan yirtib boylayapman, deb hech o‘ylamagandi.

– Gap salladami, aka? – dedi u sekingina. G'uchchi chol indamadi. Maxsumga qarab ma'yus jilmaydi. Ko'zlari ozgina yoshlanganday bo'ldi. "Ko'ngli bo'sh odamman", deb o'yladi u, lekin ko'ngli bo'shligidan uyalmadi, qaytaga ichi yorishib ketganday bo'ldi.

– Siz ko'p kuyunavermang, To'raboy, – dedi Ibodullo Maxsum. – Har kim o'z aravasini o'zi tortadi.

– Oq qo'yniyam, qorasiniyam o'z oyog'idan osishadi, – dedi To'raboy.

– Yaxshi gap bilan ilon inidan, yomon gap bilan musulmon dinidan chiqarmish, – dedi Ibodullo Maxsum.

– Ilonni yomon ko'raman, – dedi To'raboy.

– Men ko'rgan yerimda boshini tosh bilan urib, yanchaman, – Ibodullo Maxsum sal qizishdi.

– Ayamang, Maxsum!.. Lekin ilon deganingiz ham xudoning yaratgan maxluqi.

– Xudo ilondan kechgan, – Ibodullo Maxsum bo'sh kelmadi. – Shayton uning og'zidan kirib, dumidan chiqib ketgan.

– Qayerda? – To'raboy isbot talab qildi. – Ayting, qayerda?

– Jannatning darvozasida, – dedi Ibodullo Maxsum. – Ilon bilan tovus qorovul turgan joyda.

– Baribir ilon xudoning maxluqi, – dedi To'raboy.

– To'raboy, asli sovuq odamsiz-da!.. – dedi G'uchchi chol. – Ilonni himoya qilganingiz nimasi!..

G'uchchi chol asli soddaroq odam edi, umrida birorta zarbulmasal yozmagan, zarbulmasal qilib gapirishlarini ham ko'p anglamasdi. Bu gal u nimanidir anglaganday bo'ldi, anglaganday bo'ldi-ku, lekin ichiga sig'dirib turolmadi. Ko'ngliga kelganini aytdi. Aytib bo'lgach, sal oshirib yubormadimmikin, deb o'ylanib qoldi. Keyin, agar sal oshirgan bo'lsam, To'raboyni ozgina silab-siypashim kerak, degan niyatga bordi.

– Otangiz yaxshi odam edi, – dedi u bir oz turib. – Men u kishini yaxshi bilaman, bugungiday esimda turibdi...

– Sizning otangiz ham zo'r odam edi. – To'raboy, garchi u G'uchchi cholning otasini ko'rmagan ersa-da, tantilik qildi. – U kishini zo'r sakboz deyishardi.

– Xudo bir uloqni yaratmish, unga atab bir tup shuvoqni, – dedi Ibodullo Maxsum.

G'uchchi chol oshnasi o'zini uloqqa mengzaganidan og'rinmadi, aksincha uning gaplarini ma'qullab bosh irg'adi.

– Mening birovga ziyonim tegmagan, – dedi u. – Uyda bitta kafanligim bilan tablada bitta otim bor.

– Otingiz yugurikroq, shunisidan qo'rqaman, – dedi To'raboy.

– Yaxshi ot egasini ranjitmaydi, – dedi G'uchchi chol. – Mening otim yuvvosh, ustini xuddi taxtiravon deysiz!..

– To‘raboy otni bilmaydi, – dedi Ibodullo Maxsum, – siz buyoqdan buqalarni so‘rang, bostirmasida uchtasi boylog‘liq turibdi.

– Baribir, ehtiyot bo‘ling, G‘uchchi aka, – dedi To‘raboy. – Yiqitib ketsa chatoq bo‘ladi, qariganda suyakning bitishi qiyin...

– Go‘rga piyoda bormasman, – dedi G‘uchchi chol. Keyin u chorpoya ustida g‘oz turib, hovlining narigi burjiga ovoz berdi. Zum o‘tmay, Ergashning ikkita qizalog‘i choy keltirdi. G‘uchchi chol Ibodullo Maxsumning piyolasini o‘zi taraf olib, choynakning ikkinchisini To‘raboyning oldiga surib qo‘ydi.

– O‘zingiz bir maydalaysiz... – To‘raboy choyni qaytardi. Bir-ikki ho‘plam ichib, G‘uchchi cholga yuzlandi; – Kampiringiz ko‘rinmaydi?

– Bizning kampir sal pastroq, – dedi G‘uchchi chol. – Bir hafta burun hovlidan chiqib ketgan. Shu, mening o‘zimga qolsa...

– Nevaralarimdan tag‘in ranjibdi-da, aka? – Ibodullo Maxsum sal chaqqonlik qildi.

– Men G‘uchchi aka bilan g‘ijillashibdimi, deb o‘ylabman, – dedi To‘raboy.

– Yo‘q, nevaralar bilan, – dedi G‘uchchi chol. – Menga gap qaytarib ko‘rsinchi!..

Aytgan yolg‘onidan o‘zi ham qizardi. Ko‘rpacha chetida yotgan sochiqni olib, bir-ikki yelpingan bo‘ldi.

– Kun sal dim keldi, – dedi Ibodullo Maxsum.

– Ha, Maxsum, kun dim keldi, – G‘uchchi chol uning gapini tasdiqladi.

– Mening mijozim sovuqroq, – dedi To‘raboy. – Men dimligini sezmadim.

– Siz hali yoshsiz, To‘raboy, – dedi Ibodullo Maxsum. – Siz hali muni sezmaysiz.

To‘raboy piyolasini yerga qo‘ydi-yu G‘uchchi cholga tikildi. Unisi ikkita qarg‘ashoyi gulli piyolani yonma-yon tizib, quygali choynakni ko‘tardi, lekin shu tobda ko‘zlari To‘raboyning sinchkov nazariga duch kelib, bezovtalandi, choynak tutgan qo‘liga titroq kirdi. Choy choynakning jo‘mragidan dasturxon ustiga to‘kilaverdi.

– It quturgan emasdi, – dedi u titrab-qaqshab. – Tozi edi, biz o‘zimiz unga ozor berdik, boylab olmoqchi bo‘ldik...

– Choydan bosibroq iching, yengil tortasiz!..

– Ichaman, To‘raboy, mana, ichyapman-ku!..

G‘uchchi chol sal garangsidi. Ibodullo Maxsum o‘tirgan joyida bir-ikki g‘imirladi, lekin biron narsa demadi. To‘raboy – mehmon, uning o‘ziyam mehmon, G‘uchchi chol bo‘lsa — mezbon edi.

G‘uchchi chol oshnasining piyolasini to‘ldirishni unutib, faqat o‘ziga quydi va atay xo‘rillatib icha boshladi.

– Men choyga ko‘p o‘rganmaganman, – dedi u. – Yilqining ortidan ko‘p yurganmiz, ko‘zani suviga o‘rganib qolganmiz.

– Yilqidan gapirmang, G‘uchchi aka, – dedi To‘raboy. – Bitta toy kamomad qilgansiz.

– Yo‘q, – deb e’tiroz bildirdi G‘uchchi chol. – Men umrimda kamomad qilmaganman. Uyurim doim tus-tugal bo‘lardi.

To‘raboy aytayotgan bo‘z toyning tarixi uzun edi. Uni G‘uchchi chol Payshanbaning bozoridan sotib olgan. Odamlar uyuridan o‘maribdi-da, deb o‘ylamasligi uchun, bo‘z toyga qo‘shib, yana bitta qari baytalni ham ikki barobar qimmatiga savdo qilgan-u yetaklab kelavergan. So‘ng biror oylar chamasi shu yag‘ir baytalni minib guzar aylangan, guzarda duch kelgan ismi mardumga: “Yaxshi baytal, zotli, zotli-ku, lekin yoshdan qolgan, chanochqoqda quluni tablada turibdi”, deb gap uqtirgan. Gapiga birov ishonmagan. Bo‘z toy o‘sha qirchang‘i baytalga o‘xshamasdi – hurkak, tolmabo‘yin bir toychoq edi...

– Xudo begunoh qulunning payini qirqqanga hech ro'shnolik bermasin!.. – dedi Ibodullo Maxsum.

Ikki oshna baravar yuzlariga fotiha tortishdi. To'raboy ularga qo'shilmadi, ma'yuslandi... Aslida uning gunohi ko'p emasdi. Aksiga olib, o'shanda yo'ng'ichqa ayni gulga kirgan mahali edi. Agar toychoq shu gulga kirgan yo'ng'ichqani payhon qilmaganida, balki payi ham qirqilmagan bo'lardi. Buning ustiga, gulga kirgan yo'ng'ichqa payhon qilingan kecha sutday oydin edi, agar kecha sutday oydin bo'lmaganida, balkim, bo'ztoyni birov ko'rmagan ham bo'lardi... To'raboy keyinchalik payi kesilgan toychoqqa ko'p achindi. Lekin bo'lar ish bo'lgandi; bo'ztoy yo'ng'ichqani poymol qilgandi, yo'ng'ichqa esa, endi gulga kirgan edi, buning ustiga, kecha oydin edi, bedapoya uvatida yotgan chalg'ining o'tkir tig'i ham shu oydinda o'zgacha bir yaltirab ko'ringan edi...

– Maxsumga balli, – dedi G'uchchi chol. – Shu toyni odam qildi. Payini yamagani qurbi yetmadi, lekin...

– Qo'ying, aka, – dedi Ibodullo Maxsum. – Qo'ying, gapirmang...

– Gapiraman, dedi G'uchchi chol. – Axir, siz uni aqalli bir marta minmagandirsiz!..

Uning gapida biror xilof joyi yo'q edi. U o'sha bo'z toy toki ot bo'lib, keyin o'z ajali bilan ketganiga qadar biror marta ustiga egar bosmagan edi. Bo'z toy, keyinchalik xomsemizroq (u chopmaslikdan semirib ketgandi) ot, bir umrga oqsab qoldi. Ibodullo Maxsum shu oqsoq otni yetaklab yurishni yaxshi ko'rardi. Ayniqsa, To'raboyning ko'k temir darvozasi yonidan o'tishni yaxshi ko'rardi. Odamlar uning cho'loq otga bo'lgan mehrini ko'p tushunmadi, birovlar hatto g'alatiga chiqardi, savdoyi atadi...

Ibodullo Maxsum birovdan ortiqcha gumon ham qilgani yo'q. Bor-yo'g'i ikki marta guzardan toy yetaklab o'tdi, xolos. Keyin... yakshanba kuni bo'z toyni yetaklab bozordan qaytayotgan To'raboy bilan yonma-yon biror yuz qadamcha yurib ko'rdi, uning rang-ro'yiga, oyoq olishiga razm

soldi-yu hamma gapni payqadi. Mana, biror o'ttiz yildirki, u bilan To'raboyning orasida bittagina sir botin yashaydi. To'raboy tashvishi ko'p odam, – ba'zida haligi sirni unutib qo'yadi, qo'liga erk beradi, tiliga erk beradi. Lekin Ibodullo Maxsum xudolig'ni unutmagan, insofni biladi, olijanoblik qilib, eski, unutilib ketay degan sirni qaytadan To'raboyning esiga soladi.

– Men mudirligimda ikki tonna arpa kamomad qiluvdim, – To'raboy birdan pastga tushdi. – Munaqasi bo'p turadi, aka...

– Bilmadim, – dedi G'uchchi chol. – Men umrimda kamomad qilmaganman.

– Mening aybim kamomadim, sizniki shu bitta – toy...

– Balkim, meningam aybimni aytarsiz? – deb so'radi Ibodullo Maxsum. To'raboy kalovlanib qoldi. Uning baxtidan bo'lib hovli darvozasidan G'uchchi cholning o'g'li Ergash kirib keldi. Chorpoyadagilar bilan uzoqdan bosh irg'ab salomlashdi. So'ng, astoydil tikilib, To'raboyni tanidi-yu qiziqishi ortdi. Lekin u chorpoyaga kelib ulgurmadi. Ochiq qolgan darvozadan jikkakina bir g'unajin kirib, so'ramay-netmay, o'zini kampir o'tqazgan kichkina gulzorga urdi. G'unajinning shahdi baland edi — qo'yib bersa, kampirning gulzorini ship-shiydam qiladigan. G'uchchi chol avvaliga hay-haylashga chog'landi, lekin sal turib, fikridan qaytdi. "Battar bo'lsin! – deb o'yladi. – Qariganda gul ekishni unga kim qo'yibdi, chalpakka o'rab otsang it yemaydi-ku, yana xina bilan rayhon ekkaniga o'laymi!.." Ergash shart ortiga qayrilib, qo'liga tayoq oldi va yugurib kelishda g'unajinning quymichiga kaltak soldi. Ibodullo Maxsum jonivorning kaltak yeganini ko'rmayin deb, ko'zini chirt yumdi. G'uchchi chol indamadi, ichida Ergashni so'kdi. "Sadqai mol ket!" To'raboy bo'lsa, chorpoyada cho'kkalab oldi-da, Ergashga pishang bera boshladi:

– Ha, domullo, uring! Padarla'natini yaxshilab uring!.. Urib oyog'ini sindiring, domullo! Shoxiga, shoxiga uring! Qaytib birovning tomorqasiga kirmaydigan bo'ladi... Biqiniga, och biqiniga uring! Og'rimaydigan joyiga uring!.. O'roq-po'roqdan yo'qmi, domullo? Olib, biqiniga sanchimaysizmi, axir?! Bo'shashmang, domullo, uring, savilni uring!..

Ergash To'raboyning baqirig'idan bezor bo'ldimi yoki o'zining ham rahmi keldimi, g'unajinga qaytib tayoq ko'tarmadi. Bir-ikki po'pisa-yu do'q bilan g'unajinni darvozaga qaratib haydadi. G'unajin darvozadan beriroqda o'sgan bir tup semiz supurgini tomir pomiri bilan qo'porib, ko'chaga qochib chiqdi...

– Yaxshi g'unajin, – dedi To'raboy qaytib o'tirgach. – Mamasolining g'unajini. Sal ovchiligi bor, birov urib o'ldirmasa, yaxshi sigir bo'ladi.

– Qisir qolgan, – dedi Ibodullo Maxsum. – Yanagi yili yana qisir qoladi. Oyoq olishi yomon muning...

– To'raboyda uchta buqa bor, shunga oborsa bo'larkan, – dedi G'uchchi chol.

– Opkeluvdi, – dedi To'raboy. – Lekin buqaning haqini bermadi.

– Siz sigir boshiga necha puldan olasiz? – deb so'radi Ibodullo Maxsum.

– Uch so'mdan, – dedi To'raboy. – Buqalarning yemishiga kerak.

– Buqa asrab savob ish qilasiz, – dedi G'uchchi chol.

– Har kimning ko'ngli tusagani, – dedi To'raboy. – Mana, akam, siz ot asraysiz, men buqa asrayman.

– Akam otni ko'ngil uchun asraydi, – dedi Ibodullo Maxsum. – Siz buqani bo'rdoqiga asraysiz. G'uchchi akam otini o'zi boqadi, siz buqalarni hech boqmaysiz. Boqasiz-ku, lekin o'zlarining topgan puli hisobiga boqasiz.

– Har kimning ta'bi, – dedi To'raboy. – G'uchchi akam ot asraydi, men buqa asrayman.

– Buqani minib bo'lmaydi, – dedi Ibodullo Maxsum. U negadir shu topda To'raboyni kamsitishni istab qolgandi.

To'raboy bu gapga e'tiroz bildirolmadi.

– Hindular ho'kiz minarmish... – sekin gap qo'shdi G'uchchi chol.

– Baribir, ho'kiz otday chopolmaydi, – dedi Ibodullo Maxsum, so'ng oshnasiga ranjibroq qaradi. – Shu, aka, hindu bilan tuyaning farqi o'zi kam, qilgan ishining hammasi teskari bo'ladi...

* * *

G'uchchi chol darvozani bekitib kelayotgan Ergashni ko'rib, chorpoyadan turdi, keyin ota-bola uzoqroqqa, bog'ning to'ridagi xashaki olmalar tagiga o'tishdi.

– Xo'sh, ota?.. – deb so'radi Ergash.

U muallim edi – so'roq so'raganida chap qoshi xiyolgina ko'tarilib tushardi. G'uchchi chol indamadi. Ergash boshqa gap so'rashdan iymandi, ko'zlarini chang yuqqan poyabzaliga bir muddat qadab turdi, so'ng yerda yotgan eski boltani olib, olmaning ayrisiga qistirdi.

– Sen menga munday gapirma, – dedi G'uchchi chol. – Hali yoshsan. Men gapirsam yarashadi... Qachon manavi olmalarni qirqib tashlaysan?! – kutilmaganda baqirdi u. Ayriga qistirilgan boltani olib, daraxt tanasiga soldi. Bolta o'tmas edi, lekin G'uchchi chol andog' urdikim, zarbning kuchidan olmaning oq-sarg'ish tanidan bir parchasi ochilib qoldi. – Nima, boltaniyam o'zim charxlab beraymi?

– O'zim charxlab olaman, – dedi Ergash.

Ota-bola ozroq tumtayib turishdi. Keyin Ergash gap qotdi:

– Menga bir gapingiz bormidi, ota?

G'uchchi chol unga o'qrayib qaradi. O'g'li hozir o'y o'ylashga xalal berardi.

– Salomingni ayamasang bo'ldi, bolam, – deb achitdi u.

– Mehmoningiz bor ekan... – Ergash mojaroning bemavridligini eslatishga urindi.

G'uchchi cholga uning pisandasi hech yoqmadi.

– Hm... – dedi u.

– Charchadim, ota, – dedi Ergash.

– Charchabsan-da? – o'smoqchiladi G'uchchi chol. – Nima, laylak haydadingmi, o'g'lim?

– Kuchuk axtaladim!.. – Ergash o'zini tutib turolmadi, portlab ketdi. – Nima qilasiz tergab?

– Men seni tergadimmi hali?.. – G'uchchi chol miyig'ida iljaydi.

– Bo'lmasa nima? – Ergashning chap qoshi yana xiyol ko'tarildi.

– Qoshingni kerma, – dedi G'uchchi chol. – Nega qoshingni kerasan? Xotinga yarashadi! Erkakmisan o'zi? Enang o'g'il tug'dim deganday bo'luvdi-ku?..

Ergash og'rindi. Bir xayoli shart burilib ketish ham bo'ldi, lekin chol... "Chol xafa bo'ladi, – deb o'yladi u. – Keyin ikki dunyodayam qutulolmaysan..."

– Baxudo, – dedi Ergash, – Baxudo, ota so'kinmang!..

– Tojikcha gapirma, – dedi G'uchchi chol. – Besh yil shaharda o'qib, menga topib kelgan gaping shu bo'ldimi?

– Ota!.. – dedi Ergash. – Mening sizga tili-jag'im tegmadi.

– Enangga o'xshaysan, – dedi G'uchchi chol. – Uyam tili-jag'idan gapiradi.

– Meni tinch qo'ying, ota, – yalindi Ergash. – Men sizga yosh bola emasman.

– Battarsan!.. – dedi G'uchchi chol. – Sen bilan gaplashib bo'lmaydi.

– Bo'lmasa gaplashmang!

– Oq qilaman!.. – do'q urdi G'uchchi chol.

– Bilganingizni qiling!..

(Davomi kelgusi sonda)

OVOZ: HAKAMLAR HAM, ODAMLAR HAM HAYRON

O‘zim haqimda

Men Malika Muxtorova Toshkent viloyati Nurafshon shahrida tug‘ilganman, bu yil yigirmaga to‘laman. Ayni damda Chirchiq davlat pedagogika unversitetining san’atshunoslik fakultetida musiqa ta’limi yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olmoqdaman. Oilada 5 farzandning eng kenjasiman, 1 akam va 3 opam bor.

Mashhur bo‘lish, xalqning mehrini qozonish bolaligimdan orzu bo‘lgan. Ochig‘i, bir loyihadagi ishtirok orzularim yo‘lida shu qadar katta burilish yasashi yetti uxlab tushimga ham kirmagan edi. Lekin yil boshida “Shu yil biror musiqiy loyihada ishtirok etib, o‘zimni ko‘rsataman, meni butun O‘zbekiston taniydi, katta sahnalarda qo‘shiq kuylayman” deb samimiy niyat qilgan edim. To‘g‘ri, bugun meni butun O‘zbekiston tanimasa ham, ijodimga qiziqish bidiradigan, qo‘llab-quvvatab turadigan, qo‘shiqlarimni yoqtirib eshitadigan muxlislarim bor.

San’atga ilk qadam

San’atga maktabda qiziqa boshlaganman. Boshlang‘ich sinfda o‘qib yurgan kezlarim, maktabimizga musiqa fanidan yangi ustoz kelgan, biz ularga Shuhrat aka deb murojaat qilardik. Ustozimiz akkordion chalardilar. Shuhrat aka musiqa darslaridan tashqari, to‘garak ham ochgan edilar. Men shu to‘garakning doimiy faol a’zosi bo‘lganman. Mendagi ishtiyoq va ma’lum darajadagi iste’dodni ko‘ra olgan ustozim onamni maktabga chaqirib, “Qizingiz musiqaga juda ham qiziqadi, o‘rganishga ishtiyoqi baland, iste’dodi ham bor. Siz Malikani musiqa maktabiga olib borishingiz shart, uni to‘g‘ri yo‘naltirishimiz kerak” deb maslahat bergan. Shundan so‘ng onam meni musiqa maktabiga olib bordilar, u yerda 4 yil fortepiano yo‘nalishi bo‘yicha tahsil oldim. Boshqa cholg‘u asboblarini chalishni esa o‘zim mustaqil o‘rganganman.

“Gumma”li kun

Yuqorida ta’kidlaganimdek, Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasiman. Universitetga kirish uchun ijodiy imtihonlardan o‘tish jarayoni juda ham esda qolarli bo‘lgan. Ochig‘i, Chirchiq davlat pedagogika univeritetini tanlashimning sababi davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinishimga bo‘lgan ishonch edi. Chunki doim o‘z imkoniyatlarimni chamalab yurardim. Musiqa ta’limiga ixtisoslashgan boshqa oliy ta’lim muassasalariga ham kira olishga ko‘zim yetardi, ammo ularda davlat granti uchun raqobat bir necha barobar kuchli va ballar yuqori ekanligi sababli ChDPUni tanlashni to‘g‘ri qaror deb bilganman. Imtihonlarga yaxshi tayyorgalik ko‘rganim uchun a’lo natija ko‘rsatishga ishonsam-da, baribir, qandaydir qo‘rquv bor edi. Menga hamroh bo‘lib borgan opam esa hayajonimni bosish, kayfiyatimni ko‘tarish uchun “Hali mashhur bo‘lib ketsang, opam bilan gumma yeganmiz deb eslab yurasan” deya gummaxonaga olib kirganlar. O‘sha yerda umrimda birinchi marta gumma yeganman (kuladi). Gummaxonadagi chapani muhit, opamning hazillari chindan ham kayfiyatimni ko‘targan, o‘ylar bosimidan oz bo‘lsa-da xalos etgan. Kutilganidek imtihonda yaxshi natija qayd etganman va bugun o‘zim istagandek davlat granti asosida o‘qimoqdaman.

MUSIQA TA’LIMIGA IXTISOSLASHGAN BOSHQA OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA HAM KIRA OLISHGA KO‘ZIM YETARDI

Oilamdagilarning munosabati

San'at sohasini tanlashimga oila a'zolarim tomonidan biroz qarshilik bo'lgan. Onam meni qo'llab-quvvatlardilar-u, ammo qo'shiqchi bo'l demasdilar. "San'at sohasidan ketsang ham, musiqa o'qituvchisi bo'lsang, universitetingda ishlab qolsang bo'ladi" derdilar. Lekin ich-ichimdan san'atkor bo'lishni orzu qilardim. Hozircha bu niyatimga to'laqonli erisha olmagan bo'lsam-da, shu yo'lda harakatni davom ettiryapman. Ishonamanki, bu erishsa bo'ladigan orzularimdan biri. Avval qarshi bo'lgan oila a'zolarim bugun harakatim, natijalarimni ko'rib, meni qo'llab-quvvatlashmoqda. Instagram tarmog'iga qo'yib boradigan videolarimni ham doimiy kuzatib borishadi, gohida tanbehlar ham berishadi, qayerda kamchiliklarga yo'l qo'yayotganim borasida maslahatlar berishadi.

Muvaffaqiyatlar siri

To'g'risi, har bir erishilayotgan muvaffaqqiyat va natijaning ortida juda ko'p mashaqqat, sabr-qanoat, yaqinlarning ko'magi, o'zingizga bo'lgan ishonch turadi. Avvalo, niyatni to'g'ri qilish kerak va u shunchaki qolib ketmasligi, bu yo'lda doimo harakatda, izlanishda bo'lib turishingiz lozim. Bunday paytda bir o'zingiz uzoqqa borolmaysiz, albatta, atrofdagilar, yaqinlaringiz, ustozlaringiz, do'stlaringizning qo'llashi ham muhim. Bu xulosalar o'zim bosib o'tgan yo'lning hosilalaridir. Oila a'zolarim qatorida yaqin do'stim Binafshaning ham alohida o'rni bor bu muvaffaqiyatlarimda. U mening karyeram uchun mendan ham ko'proq qayg'uradigan inson. Bu kabi do'stlarning borligi insonni suyuntiradi, albatta! Muvaffaqqiyatim siri yaqinlarim, do'stlarimning ko'magi, qo'llab-quvvatlashi, harakatdan to'xtashimga qo'ymay, ijod qilishga undashlarida deb o'ylayman.

Tandiqlar

Ha, ovozimga nisbatan ijtimoiy tarmoqlarda yozilgan izohlarda ba'zan haqoratlar, kamsitishlar ham bo'ladi. Ovozimni o'zgartirib aytishim haqida ham ko'p gapirishadi. Aslo unday emas. Bu Alloh menga in'om etgan tabiiy ovozim va men bundan faxrlanaman. To'g'ri, o'zgartiraman desam, ovozimni yo'g'onroq qilib ham aytishim mumkin. Lekin yo'gon tondan gapirish meni toliqtirib qo'yadi. Tajriba o'rnida instagram uchun bunday videolar ham qilib ko'rdik. Ammo qo'shiq kuylayotganda ovozimni o'zgartirmayman, hammasi tabiiy. Ijodimga negativ qaraydiganlarga uncha e'tibor bermayman, to'g'ri tanqidlarni esa samimiy qabul qilib, kamchiliklarim ustida ishlashga harakat qilaman.

Shu bilan birga, uslubimni qo'llab-quvvatlaydiganlar, ijodimda yangiliklar kutadigan muxlislarim ham kam emas. Ulardan ham minnatdorman.

"ARTIST" MEN UCHUN KATTA MAKTAB BO'LDI

Hammasi yaxshilikka...

"Artist" loyihasi men uchun ilk tramplin, poyqadam bo'ldi. San'atga kirib kelishimda bu loyihaning o'rni juda ham katta. Aslida, unda ishtirok etish rejamda bo'lmagan. Fevral oyida do'stim bilan borib kasting uchun ro'yxatdan o'tganimizda ham hali qaysi qo'shiqni ijro etishim haqida bir qarorga kelmagandim. Kastingda juda katta hayajon bo'ldi, ammo umid qildim, ishondim va birinchi saralashdan o'tib, kuchli yuztalikka qabul qilindim. Shu bosqichdagi chiqishimda qilingan ijro ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqaldi, juda ko'p aylandi. Undan so'ng esa kuchli elliktalikda biroz charchab qoldim. Loyiha tashkilotchilari ham meni u yog'iga yetib borolmaydi deb hisoblashdi, nazarimda. Xullas, shu tariqa loyihani tark etishimga to'g'ri keldi. Avvaliga chiqib ketganim uchun biroz xafa bo'ldim, ammo keyinchalik o'rganib ketdim. Shunday esa-da, "Artist" men uchun katta maktab bo'ldi. Qolaversa, ko'pchilik meni taniy boshladi, menimcha, hammasi yaxshilikka bo'ldi!

Kelgusida...

Kitob mutolaasini, kutubxonalarda vaqt o‘tkazishni juda ham yaxshi ko‘raman. Eng sevimli va qayta-qayta o‘qisam ham zerikmaydigan kitobim – Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi. To‘g‘ri, hajmi katta asar, lekin insonni o‘ziga tortadigan, tushunarli va ta’sirli tilda yozilgan. Shuning uchun ham bu asarni o‘qishni barchaga tavsiya qilaman. Hozir esa Hulio Kardoning “Yosh qizning kundaligi” asarini o‘qiyapman.

Kelgusida amalga oshirmoqchi bo‘lgan rejalarim ko‘p. Masalan, ushbu yilda Turk tili bo‘yicha sertifikatimni yangilamoqchiman, ya’ni avvalgi natijamdan yuqoriroq ball olishni ko‘zlaganman. Keyin Instagram sahifamni yana-da rivojlantirib, ayni vaqtda yig‘ilib turgan auditoriyani yo‘qotib qo‘ymaslik uchun ham to‘xtamasdan ijod qilish, san’at sohasida o‘z o‘rnimga ega bo‘lishni maqsad qilganman. Shu bilan birga, boshqa tillarni ham o‘ragnib, sohamning yetuk mutaxassisi bo‘lmoqchiman.

Maqsad OBIDJON yozib oldi

SAN’AT SOHASIDA O‘Z O‘RNIMGA EGA BO‘LISHNI MAQSAD QILGANMAN

G‘oyibona ustozlar

Turk tilidan sertifikatim bor. Ammo turk tilini biror maqsad uchun o‘rganmaganman, shunchaki bu tilni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishim sabab. Chunki bu tildagi chiroyli talaffuz menga juda yoqadi. O‘zim ham, asosan, turkcha qo‘shiqlar eshitaman. Nahida Babashli, Zeynab Bastik, Nil Kara Ibrahimgul, Serdar O‘rtach va Umut kabi san’atkorlarni ko‘proq tinglayman va ulardan qo‘shiqlar kuylayman. O‘zbek san’atkorlaridan Hilola G‘ayratova, Jahongir Otajonov, Sevara Nazarxonlarning ijodlarini katta qiziqish bilan kuzatib boraman. Har birlari o‘ziga xos uslubga, ovozga ega san’atkorlar. Ularning ijodida o‘rganish mumkin bo‘lgan jihatlar ko‘p, o‘zim uchun g‘oyibona ustozlar deb bilaman.

Kulaymi, kuyaymi?



Talabadek noshukr odam bo'lmasa kerak. Har doim bir nimalardan norozi. Qachon qarasa, nolib yuradi. O'zini ko'rsataman deb har maqomga yo'rg'alaydi. Kelgan tekshiruvchilarga dardini dasturxon qiladimi-ey, tushunmaysan. O'zi soat 8:45 da kelib, tag'in haq talab qilishlarini-chi?

Yaqinda uch-to'rttasi chiqib fakultetda proyektor yo'qligini hajv qilib bayramda tomosha ko'rsatibdi. Proyektor bo'lmasa, osmon uzilib boshingga tushadimi? Yoki bir joying kamayib qoladimi? Dunyoda proyektor bo'lmagan zamonlarda Beruniy Amerikani kashf etgan, Ulug'bek yulduzlarni o'rgangan. Bular proyektor yo'q, deb noliydi. O'qish kerak, xumpar, o'qish kerak.

Shularni o'ylab-o'ylab, dorilfununimizning barcha talabalari nomidan kechirim so'rashni ko'ngilga tugdim. Asli maqola sarlavhasi birinchi kursligimda, bir voqea sabab paydo bo'lgan. Darsga 10 daqiqa kech qolganim uchun qaysidir fakultetning "ma'naviyatchi"si bir nimalar deb baqirganda, kechirim so'rab bir amallab qutulgan edim. Garchi boshqa so'z aytgim kelgan bo'lsa ham, tag'in o'zimga dars beradigan domla bo'lmasin, deya tilimni tiygandim.

Xo‘p, endi muddaoga qaytsak.

Ruxsatingiz bilan birma-bir ustozlardan uzr so‘rashni boshlasam.

Qoshlarini chimirib, o‘zini jiddiy qiyofaga solgan yosh ustoz. Doim siz o‘tayotgan fandan bilmaydigan savollaringizni beradigan (ustoz bilmaydigan narsani so‘rab nima qilasan?), nohaq “nb” qo‘ysangiz talashadigan, dars o‘tish metodikasi deb, allambalo plakat-u debatlar qildirishingizni bilim olish emas, ko‘zbo‘yamachilik deb hisoblaydigan talabalar nomidan uzr so‘rayman.

O‘zlariga obdon oro berib yuradigan, tiqmachoqday kiyinishni ma’qul ko‘radigan bir nechta universitetni tugatgan (o‘zi ta’kidlashicha), murosasiz “aqlli”, ammo haligacha familiyalarni to‘g‘ri o‘qimaydigan ustoz. Bir mashhur bloger haqida gapirganida “U postlarini o‘qigan odamlarning sarflagan trafigidan daromad oladi” deganida, bu domladan fig‘oni falakka chiqqan, “yozuvchi guruh ekansizlar”, deya bo‘ynimizga taxtakach ilganida e’tiroz bildirgan, o‘tayotgan fanining nima ekaniga “vopshim” tushunmaganidan dog‘da qolgan, o‘zi kalta-kulta kiyinib yurib, talabalardan forma talab qilishini mantiqsizlik deb baholagan talabalar nomidan uzr so‘rayman.



Talabaning gap-so‘zi sal bo‘y cho‘zsa, darrov butalashga tushadigan, “Sen kimsan o‘zi?” deya oynak osha boqadigan, formasizlar va kechikkanlar uchun baloyi azim bo‘lgan ustoz. Bu ustozdan “tili uzun” va “jag‘i yopilmaydigan”, shuningdek, hasharchalarida qatnashmaydigan, “Yer dumaloq” deya po‘pisa qilgani uchun biroz ranjigan talabalar nomidan uzr so‘rayman.

Ikki joyda dars berib, kech qolganda atigi yarim soatgina kutishga majbur qiladigan ustozlardan ham “aybdor” talabalar nomidan uzr so‘rayman.

O‘zimiz aybdormiz. Avval formani, davomatni, prezentatsiyalar-u mustaqil ishlarni do‘ndirib qo‘yaylik-da, keyin gapiraylik. Ruxsatsiz nomlaridan uzr so‘raganim uchun talabalardan ham kechirishlarini so‘rayman. Chunki erta bir kun ular orasidan ham universitet domlalari yetishib chiqishi tayin. Biz kabilar qichiydigan joyni avvaldan qashib qo‘yishga odatlanganmiz. Xullas, uzrnoma qanday bo‘lishini o‘rgan, student!

Lagan BARDOR

NODIR JONUZOQ

TALABALIK QISSASI

Men ham bir payt siz kabi
O'tyurak tolib edim.
Chorlab hayot maktabi,
So'ng bundan tonib edim.
Bugun dilda nadomat,
Bugun tilimda tavba:
Qani, kulsa-yu omad,
Bo'lsam bir pas talaba.
Afsus, hayot dilimni
Shamolday yulib ketdi.
Sochib barcha ilmni,
Ustimdan kulib ketdi.
Cho'kayapman kun sayin,
Dilda achchiq quyqalar.
Men ham bir payt sizdayin
Oshiq edim, ukalar.
Teng kelmasdi damimga
Majnun, Farhodning ohi.
Goho singib g'amimga,
Ko'kka uchardim gohi.
Eh, u damlar zamin na,
Samoni buzsam derdim.
Yulduzlarni yig'ib va
Hilolni uzsam derdim.
Ko'z tikardi yo'limga
Go'zal, g'amgin nigohlar.
To'kilib o'ng-so'limga
Pinhon kuyish, oh-vohlar.
Meni o'ylab tunlari,
Ne qizlar bedor edi.
Men sevmasdim ularni,
Ular-chi, bemor edi...

Bir kun boshlandi nogoh
Dilda taka-pukalar.
Qayg'udan bo'ldim ogoh -
Sevib qoldim, ukalar!
Ichim yonardi gur-gur
Unga qaragan sari.
U maxliqo edi, hur,
Odam qizimas - pari.
Holim siniqib tun-kun,
Ich-etimni yer edim.
"Seni sevaman, tushun..." -
Tushlarimda der edim.
Dardim - uni qo'msamoq,
Bezdim o'zga va'zlardan.
Sevgidan olib saboq,
Oyoq uzdim darslardan.
Men ham sizday u mahal
Oshiq edim, ukalar.
Yigirmadan endi sal
Oshib edim, ukalar.
Xullas, mendan kuldi u,
Dedi: "Meni sevmassan -
Sening tenging odam-ku,
Sen jin yoki devmassan..."
Qolaverdim mung'ayib,
Qolaverdim bemajol.
U bo'ldi ko'zdan g'oyib,
Boshqa ko'rmog'im mahol...

Yillar o'tdi. Ko'zimga
Kullarin sepib o'tdi.
Yukin ortib ustimga,
Nuqib, goh tepib o'tdi.
Mulla mingan eshakday
Tushib oldim bir izga.
Endi yoshlik ertakday,
Endi o'ylarim o'zga.
Osmondagi oy emas,
Yerdagi toshga boqqum.
Jo'shqin, asov soy emas,
Sokin daryoday oqqum.
Qaramayman oy, yillab
Na ko'ngilga, na she'rga.
Meni sevganlar yig'lab,
Tegib ketdilar erga.
Nima qilay... Bu hayot
Saboq berdi har bobdan.
Endi menga g'o'rlik yot,
Endi pishiq arbobman.
O'ylayman manglay uyib,
Bo'ynimda gullik arqon.
Ulkan zafarni tuyib,
Qadam tashlayman har on.
Toliqib kelsam uyga,
Xotin poyim uqalar
(Fido bo'ladi suygan),
Buyam bir baxt, ukalar.
Yashayapman taqdir deb,
Qilib har dam murosa.
Yuz burmayman taxir deb,
Shu men kelgan xulosa:
Parilarning hislari
Erkka moyil bo'ladi.
Meni sevgan qizlarning
Og'li shoir bo'ladi!

YO'XAN SNELMAN:

"O'LIK SO'ZLARDAN QOCHING..."



Istanbulda odatdagi talabalar bilan yig'ilishimizdan birida vatanimiz uchun zarur bo'lgan kitoblarni o'zbekchaga tarjima qilish borasida gaplashgan edik. O'shanda hammaning tavsiyalari asosida tarjima qilinishi zarur bo'lgan kitoblar ro'yxatini tuzdik. Ro'yxatning eng birinchisiga Grigoriy Petrovning "Oq nilufarlar o'lkasi" kitobini kiritgan edik. Kitob 1920-yillarda yozilgan bo'lib, Finlandiyaning qaram davlat va qoloq jamiyatdan qanday qilib rivojlangan davlatga aylanish tarixi haqidadir. Kitobni uch talaba birlashib tarjima qilib tugatdik.

Asarning o'zim tarjima qilgan qismidan bir parchani sizlarga havola qilmoqchiman. Bu Finlandiyaning hozirgi holatiga kelishiga sababchi bo'lgan, fin xalqining qahramoni Yo'xan Snelmanning (1806-1881) cherkov rohiblariga qarata aytilgan murojaatidir. Snelmanning murojaati bizlarga tegishli emas deb o'ylamang. Murojaatning to'liq matnini beraman, bir o'qib ko'ring, hozirgi holatimizga to'g'ri keladimi-yo'qmi, mulohaza qiling.

Tarjimondan

"Hurmatli rohiblar va cherkov xodimlari, dushmaningiz bo'lib emas, cherkovning bir farzandi sifatida sizlarga murojaat qilyapman. Xalqning haqiqiy rohiblari bo'ling. Din odami cherkov ishchisi emasligini biling. Ruhoniylik bir kasb emas. Vazifangiz ommaviy va xos diniy marosimlarni o'tkazib berish emas. Iso Payg'ambar (alayhissalom) har narsadan oldin xalqqa toza, yaxshi, to'g'ri hayot yo'lini o'rgatganlar. Insonlarning vijdonini tozalaganlar, bir-birlarini yaxshi ko'rishlarini, hurmat qilishlarini nasihat qilganlar. Ta'sirli ma'ruzalaringiz bilan xalqning ichiga kiring. Tinglovchilarni uxlatadigan kitob tilida gapirmang. Agarda Hazrati Iso (alayhissalom) Suomiga kelganlarida xalqga qanday xitob qilgan bo'lardilar, qanday munosabatda bo'lardilar, sizlar ham xuddi shunday xitob qiling.

Ey rohiblar, ikki millionlik fin xalqi nomidan ko'zimda yosh bilan sizlardan o'tinib so'rayman. Dinni qiyin qilib ko'rsatadigan narsalardan uzoqlashing. Xalqqa ochiq, sodda, toza, hayot bilan hamnafas din tushunchasini o'rgating. Injil o'rgatganidek hayot kechirishni yoshlarga va kattalarga ko'rsatib bering."

Finlandiyaning poytaxti Helsingforsda (hozirdagi ismi Helsinki) bir yili "Xalq orasida diniy tushunchalarning kamayib ketishi, cherkovga e'tiborsizlik va din odamlariga hurmatsizlik" mavzuida yepiskoplar qurultoyi bo'lib o'tdi. Snelman shu yig'ilishda ma'ruza qilish uchun ruxsat so'raganida yepiskoplar bunga qarshi chiqib:

"Bu bir yepiskoplar qurultoyi, ruhoniy bo'lmagan kishiga bu yerda o'rin yo'q. Snelman kabi cherkovga bog'liq bo'lmagan birisi cherkovning yuksak darajali vakillariga nima ham ayta oladi?" dedi. Snelman shundan keyin ularga bir maktub yozdi:

"Sizlarga bir narsalar o'rgatmoqchi emasman. Men sizning ulkan va boy cherkovingiz nega sovuq bo'lib qolganini gapirib bermoqchiman. Siz xalqning dindan, cherkovdan sovub ketganini tan olyapsiz, men esa sizga bu holatga qanday kelib qolganini tushuntirmoqchiman. Meni xalqning so'zi sifatida eshiting! Siz meni majlisga kiritishni xohlamadingiz, ammo bir kasalni eshitmasdan uni tuzatish mumkinmi?"

Snelmanni bu maktubidan keyin qurultoyga chaqirishdi va u shunday ma'ruza qildi:

"Sizlarni ayblash, xatongizni oshkor qilish niyatida emasman. Men bo'lmasam ham din odamlarini ayblaydiganlar ko'p. Men rohiblarni ayblamayman. O'zimni, ommani, butun xalqni ayblayman. Rohiblar osmondan tushib qolmaydi yoki dengizdan chiqib kelmagan. Din odamlarining go'shti go'shtimiz, suyagi suyagimizdir. Yaxshi yoki yomon bo'lsin, din odamlari bizdandir. Shuning uchun din odamlariga qilingan qattiq tanqidlarni eshitib, ayblaganlardan shu narsalarni so'rayman:

Muqaddas rishtalar

"Aytingchi, tijoratchilarimiz vijdonlimi? Oshpazimiz, duradgorimiz, temirchimiz qay darajada o'ziga to'g'ri? Qaysi kasb egasi o'z sohasida yaxshi natijalarga erishyapti? Advokatlarimiz, parlament a'zolarimiz, jurnalistlarimiz yegan non-tuzini oqlayapti deya olamizmi? Siz yana nimani xohlaysiz?

O'z ichingizdan chorvangizga yaxshi bir cho'pon topolmay turib, cherkovda yaxshi rohib yo'q, deyishingiz qanchalik to'g'ri?"

Shuning uchun, bu yerga sizni ayblashga kelmadim. Tabiblarning oldiga bir xasta bo'lib keldim. Sizlarga mana shu gaplarni aytishga keldim: "Xalq to'pori, qalbi qattiq, yalqov, ochko'zdir. Xalqning hech kimga, hech narsaga hurmati yo'qdir. Xalq hech kimga ishonmaydi. Har narsaga shubha bilan qaraydi. Qani, aytingchi, bu yerda din bo'lishi mumkinmi? Qanday din bo'lishi mumkin? Xalq orasida cherkovning eski qadriyatlari bo'lishi bilan birga, tagi bo'sh e'tiqodlar ham bordir. Bu ahvolda xalqni ayblasak to'g'ri bo'larmikan? Haqiqiy dinni xalqqa kim, qayerda va qachon yetkazdi? Hazrati Iso (alayhissalom) bilan havoriylari xalq orasiga kirib, xalqni topib, xalqqa soatlab Xudodan, sevgi-muhabbatdan gapirardi. Sodda va ochiq gaplashib ko'ngillarini olardi. Minglarcha kishi Iso (alayhissalom) orqasidan ergashar, cho'lda Yuhannoni qidirardi. Endi esa, obod yerlarda bo'lsa ham cherkovlar cho'l kabi kimsasiz! Xalq xutba va ma'ruzalardan qochyapti, nega? Chunki voizlar o'lik so'zlar bilan ma'ruza qilyapti. Bu so'zlar xalqning aqliga ham ko'ngliga ham o'tirmaydi. Falokatni qanday, nima bilan oldini olishingiz haqida o'ylab ko'ring. Bu sizning ishingiz va vazifangizdir!

Sizga xalqning ma'naviy kasal ekanligini aytyapman. Xalq juda qattiq kasaldir. Xalqning diniy tushunchasi zaiflashishi faqatgina cherkovning muammosi emas. Bu davlat uchun eng tahlikalidir. Dinsizlik balki xalqning eng tahlikali kasalligidir. Xudoga ishonmagan bir ko'ngil faqirlikka, ruhan yolg'izlikka duchor bo'ladi. Dinsizlik xalqning muqaddas sanagan barcha narsasini yo'q qiladi. Natijada, hayvoniy yashash tarzi, vijdonsizlik, o'zini o'ylash, o'g'rilik, axloq buzuqligi kuchayib ketadi.

Siz cherkov boshqaruvchilariga aytamanki: Xudoning inson qalbidagi yeri kichrayib boryapti. Bundan qo'rqinchliroq nima narsa bo'lishi mumkin? O'zingizga, Xudoga, millatingizga ochiq qalbli bo'lishni xohlasangiz aybdorlarni boshqa yerdan qidirmang. Bilimni, falsafani yoki ziyoli qatlamni ayblamang. Butun din va mazhabdagilarning ikkiyuzlilari hamma joyda va har vaqt shunday qilib kelishyapti. O'zingizni o'zingiz tanqid qiling, o'zingizni davolang. Xalqqa ta'lim berish yo'llarini o'rganing. Xudoni oldin o'zingiz qidirib toping. Undan keyin xalqqa to'g'ri hayot yo'lini ko'rsating.

Takror aytaman, qalbda Xudo sevgisi bo'lmasdan turib xalq og'ir vaziyatdan qutulolmaydi. Shuning uchun, gapimni siz cherkov yepiskoplaridan yordam so'ragan holda bitiraman. Xalqni qutqaring! Dinni o'lik ko'rinishda emas, qalblarga Xudoni sig'dira oladigan tuyg'ular omuxtaligida bering!"

* * *

Snelman ma'ruzasini bitirib majlis qatnashchilariga rahmatlar aytdi. Ma'ruzasi deyarli barchaga ta'sir qildi, lekin ba'zilar jahl qilib: "Beodoblik bu! Yuzsizlik! Cherkovga haqorat", deb baqirganlar ham bo'ldi. Boshqalari jim o'tirishar edi. Bu jimlik Snelmanning gaplari to'g'ri ekanligini tasdiqlab turardi. Ular o'tmishidan uyaldi, kelajakka sevinch bilan qaray boshlashdi.

Qurultoyning eng keksa yepiskoplaridan biri, Snelmanning o'qigan maktabida ilgari rohiblik qilgan kishi, o'rnidan turib Snelmanni oldiga keldi, peshonasidan o'pdi va "Rahmat senga" dedi. "Eski rohib o'qituvchingni xursand qilding. Ko'zlarim xalqning qutulish tongini ko'rgani uchun sevinyapman. Tangri bu buyuk da'vongda yordamchi bo'lsin!"

Ba'zi yepiskoplar qurultoydan keyin o'z hududlariga borib rohiblarini to'plab, cherkovda va'zlarni qanday jonlantirish, din odamlarining xalq bilan qanday munosabatda bo'lishlari to'g'risida munozaralar qildilar. Bir necha joyda rohiblar o'zaro to'planib birlikda Injil o'qidilar. Uning buyuk haqiqatlarini chuqur o'rganishga kirishdilar".

Fayzullaxon OTAXONOV tarjimasi

VAQT "JILOVLANGAN" KUN

Talabalik davri, asosan, inson hayotining ham aqlan, ham jismonan rivojlangan pallasiga to‘g‘ri keladi. Shu sababdanmi, bu davrda do‘stlik qadrli, muhabbat unutilmas. Shu bois o‘tayotgan vaqt u yillarning xotiralarini qalbga chuqurroq muhrlab boradi. Bu xotiralarga daxldor insonlarga ko‘zimiz tushganda, daf’atan o‘sha xotiralar yurakdan qalqib chiqadi...

Restoranga yetib borganimizda qadrdon kursdoshlarimizning bir guruhi bino ostonasida o‘zaro gurunglashib turgandi. Ular bilan ko‘rishib, birgalikda ichkari kirdik. Zamonaviy uslubda bezatilgan zal. Uzun pardalar ilingan baland derazalar. Chiroqlari yalt-yult qilib hammaning e’tiborini jalb etgan osma qandillar. Tomosha bilan band bo‘lgan xayolni mikrofon tutgan boshlovchining gulduros ovozi bo‘ladi:

- Assalomu alaykum, qadrli bitiruvchilar, aniqrog‘i, bundan roppa-rosa 20 yil avval O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Xalqaro jurnalistika fakultetini tamomlagan talabalar hamda ularga yillar mobaynida ta’lim bergan hurmatli ustozlar! Tantanali kechamizga xush kelibsiz! Ochig‘i, faoliyatim davomida shuncha yillik “staj”ga ega va bu darajada ko‘pchilik bo‘lib yig‘ilgan bitiruvchilarning bir davra atrofida yig‘ilganini birinchi marta ko‘rishim. Besh, o‘n, nari borsa o‘n besh yil avval o‘qishni bitirganlarning uzog‘i bilan 30-40 nafari yig‘ilganiga ko‘p guvoh bo‘lganman. Lekin bugungidek bo‘lmagan! Naq 75 bitiruvchi-ya! Qoyil...

... Hammasi 2000-yil sentyabr oyida boshlangan. O'sha kuni auditoriyaga tim qora sochi yelkasiga tushgan, qoshlari qalin, qirra burun, ko'rinishi eronliklarga o'xshaydigan, yoshi boshqa talabalarga nisbatan kattaroq, bo'yi baland, qoramag'iz yigit kirib keldi. Yigitning egnida oq ko'ylak, kostyum-shim. Shimga yelka osha tushgan "podtyajka" – osma kamar taqilgandi.

– Yigitlar, qizlar, – dedi u auditoriyada o'tirgan, endi bir-biri bilan tanishayotgan talabalarga qarab, mening ismim Nodir. Menimcha, hammangiz "proyezdnoy" – oylik yo'l chipta olgan bo'lsalaringiz kerak. Dekanatning muhri tushirilmagan "proyezdnoy" haqiqiy hisoblanmaydi. Shuning uchun yo'l chiptalarini menga yig'ib bersangiz, dekanatga kirib, "pechat" urib beraman.

Bir-ikki kundan so'ng katta guruhimiz uchun sardorlikka saylov o'tkazildi. Ko'pchilik yoshi kattaroq, bir-ikki tashkiliy ishlarga boshini suqib, ko'zga ko'rinib qolgan Nodirning nomzodini qo'llab-quvvatladi. Shu-shu, o'sha novcha yigit fakultetning "yog'li" ishlarini bajaradigan bo'ldi. Stipendiyani tarqatish, katta-kichik tadbirlarni o'tkazish, talabalarni qiynayotgan o'qituvchilar bilan ochiqchasiga gaplashish kabi mas'uliyatli vazifalar "qariya"ga yuklatildi. Tan olish lozim: u "ne vigodniy", ya'ni foyda bermaydigan yumushlarga qo'l urmasdi. Cho'ntakka zarar yetkazadigan tadbirlarga bormaslikni afzal deb bilardi. Ammo foyda-yu daromad hidi kelgan ishlarga esa tish-tirnog'i bilan yopishib olardi. Bir ishni boshlasa, uni oxirigacha bitirmaguncha qo'ymasdi. Eng muhimi, ishlarini bitirayotganda, go'yoki kursdoshlari manfaatini himoya qilgandek ko'rsatardi o'zini. Fakultetdagi ustozlar ham "starosta"ni "oyni benarvon uradigan" yigit ekanini bilishardi. Shuning uchun ular talabalar bilan bog'liq muammolar yuzaga kelsa, gohida boshqa tashkiliy masalalar paydo bo'lsa darrov "qariya"ni qidirib qolishardi. Biroq tan olish joiz: Nodirning bir o'zi hamma ishlarni bajara olmasdi. Unga har jabhada Dilfuza Toshkenboyeva, Muhabbat Rahimova, Murodjon To'raxonov, Bekzod Berdiyev kabi yetakchi talabalar beminnat yordam berardi.

KATTAQO'RG'ONLIK USTASI FARANG

TALABALIK DAVRIM MENING...

Oltin davrga qiyoslangan talabalik yillarida yigit-qizlar har tomonlama o'zlarini ko'rsatishga harakat qildilar. Xususan, bir necha talaba fakultet qoshida tuzilgan "Havaskor" radiodasturlarida faol ishtirok etgan bo'lsa, bir guruh qalami o'tkir talabalar tanqidlar bilan to'lib-toshgan devoriy gazetalarni tayyorlab, hammaning e'tiborini qozonishga muvaffaq bo'lardi. Sportga qiziqqan talabalardan iborat futbol jamoasi universitet miqyosida fakultet sharafini munosib himoya qildi.

Ahil talabalar ustozlar bilan birgalikda Samarqand va Buxoro shaharlariga, shuningdek, Toshkent viloyatining tog'li hududlariga, Farg'ona vodiysiga sayohatlar uyushtirdi.

Umuman olganda, talabalik davri ham kulgili, ham qayg'uli voqealarga boy bo'ldi. Jumladan, reyting daftaridagi imzoni soxtalashtirgan deb topilgan bir talaba jazo sifatida fakultetdagi hojatxonalarni ta'mirlagan bo'lsa, yoqtirib qolgan kursdoshi turmushga chiqayotganini eshitgan bir talaba ma'lum muddatga nom-nishonsiz yo'qolib qoldi. Jamoaviy sayohatga chiqqan bir talabaning qimmat charm kurtkasi o'g'irlangan bo'lsa, oilaviy sharoiti tufayli universitetdan haydalayotgan bir talaba butun potok sa'yi harakati bilan o'qishda olib qolindi.

Talabalarga dars bergan ustozlar ham har xil edi: aksariyati o'qib kelsangiz bahoyingizni muammosiz qo'yib berishardi. Ammo ustozlar orasida o'qimasangiz ham shundoq reyting balingizni "zachyotka"ga qo'yib beradiganlar ham, 3-4 ta referat, kurs ishi yozib ko'rsatsangiz ham barcha talabalarni soat 22-23 gacha olib o'tiradigan qattiqqo'l "pedagog"lar ham yo'q emas edi.

KELAJAKKA QADAM

Shu tariqa to'rt yil o'tdi. O'qish tugadi. Keyin esa diplomli bo'lgan salkam 120 nafar talaba har yoqqa sochilib ketdi: kimdir televideniyega, yana kimdir radioga ishga joylashdi. Ba'zilar gazeta-jurnal tahririyatlarida faoliyat ko'rsata boshladi. Bir necha bitiruvchi davlat tashkilotlari matbuot kotibi sifatida ish boshladi. Jurnalistikaga umuman aloqasi bo'lmagan sohalarga o'tib ketganlar ham ko'p bo'ldi. Ularning ayrimlari hozir yurtimizdagi yirik xususiy kompaniyalarni boshqarayotgan bo'lsa, ayrimlari xorijiy davlatlarda katta biznes loyihalarini amalga oshirib kelmoqda.

Bu orada kursdosh yigitlar choyxonalarda uchrashib turgan bo'lsa-da, katta guruh (potok) darajasidagi yig'ilishlar tashkil etilmasdi...

2014– va 2019-yillarda ko'p sonli qadrdonlar taklifiga ko'ra, Xalqaro jurnalistika fakultetini tamomlagan o'sha talabalar bakalavr diplomini olganlariga o'n va o'n besh yil to'lishi munosabati bilan bir dasturxon atrofida yig'ildi. Lekin, ochig'ini aytish kerak: tashkilotchilarga oson bo'lmadi. Zero, ko'pchilikka ma'qul bo'ladigan sanani belgilash, bu boradagi xabarni hammaga yetkazish, tadbir o'tkaziladigan joyni band qilish, eng asosiysi, pul yig'ish oson ish emas edi. Eng yomoni, shuncha harakat qilib, hammani bir joyga jam qilgan tashkilotchilarning ishidan ayb topib, o'sha mayda kamchiliklarni uning yuzlariga aytganlar ham, orqalaridan gapirganlar ham bo'ldi. Shunday bo'lsa-da, ular g'iybatlarga ahamiyat berib o'tirishmadi.

YAKUN

2024-yil. Orada bo‘lib o‘tgan dilxiraliklarga qaramay, ustasi farang “qariya” va uning Bobur Mamadaliyev, Farhod Qodirov, Said Abdulaziz Yusupov, Aziz Fayziyev, Nozim Meliyev, Akmal Nazarov kabi sheriklari bilan “yigirma yillik”ni o‘tkazishga ham bel bog‘ladi.

Ahamiyatlisi, yigirma yillik tantanada avvalgi ommaviy tadbirlarga nisbatan ko‘proq bitiruvchi jam bo‘ldi! Balki, bunga ijtimoiy tarmoqlarning ancha rivojlangani sabab bo‘lgandir. Balki, qirqdan oshgan kursdoshlarning bir-birini ko‘rish ishtiyoqi oshib ketgandir. Har holda, shu kuni rekord o‘rnatildi! Ziyofatlar koshonasiga 75 nafar bitiruvchi yetib keldi. Xursand qiladigani, ular orasida yurtimizning boshqa viloyatlaridan, hatto Amerika, Yevropa davlatlaridan uchib kelganlar ham bor!

Biz bilan “starosta” hamda Alisher Matyoqubov, Yoqutxon Erkaboyeva, Mahzuna Kamolova va boshqa kursdoshlar sa’y-harakati bilan 1-iyun kuni O‘zDJTU binosida “Xalqaro jurnalistika – 2004” bitiruvchilari, ustozlar va hozirda tahsil olayotgan talabalar ishtirokida “Uch avlod uchrashuvi” bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvni talabalarning ko‘p yillik yo‘lboshchisi, ustoz Akbar Nurmatov ochib berdi. Tadbir davlat va xususiy radio-telekanallarda, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritildi. Kechqurun esa bir-biri bilan do‘st-u dugona, aka-uka, opa-singil bo‘lib ketgan kursdoshlar bir dasturxon atrofida o‘tirib, eski va yangi xotiralarni yodga oldilar.

Tadbirga kelganlar Boybo‘ta Do‘stqorayev, Saydi Umirov, Mahmud Sa’diy, Shodi Karimov kabi rahmatli ustozlar hamda dunyodan bevaqt o‘tgan kursdoshlar haqiga duo qilib, 2029-yilda yana sog‘-salomat uchrashishni niyat qildilar.

Xudo nasib qilsa, ustasi farang “qariya” yana bir g‘ayrat qilsa, u kunlarga ham yetsak ajabmas.

Sobiq talaba

ERISHUVCHANLIK MUNTEHI

Bolalikdan kitobga bo'lgan mehrim sabab keyinchalik o'zimni, o'z yo'limni topish qiyin bo'lmagan. Hech kim xalal bermasin deb tomga chiqib kitob o'qiganlarimni uydagilarim haligacha eslatib turishadi. Xorazmning Urganch tumanida tug'ilganman. Qishloq qizining Toshkentga borib o'qishi oliy o'quv yurtiga topshirayotgan kezlarimda mashaqqatli edi. Shu bois menga hamma birdek ishonch bildiravermagan. O'ylab qarasam, akademik

Ochig‘ini aytaman, universitet menga ko‘plab imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Faol talaba sifatida 2023-yilda O‘zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarboyjon Madaniyat markazi loyihasi va tashkilotchiligi bilan Ozarboyjon davlatida o‘tkazilgan tadbirlarda ishtirok etdim. Unda o‘zimning she’riy chiqishlarim bilan adabiyotchilar nazariga-da tushdim. Rejalarim qatoriga ozar tilidagi she’rlarni o‘z tilimizga o‘girishni qo‘shib qo‘ygandim, amalga ham oshirdim. Ozarboyjonga qilingan safar men uchun unutilmas bo‘lganining sababi shuki, demak hali bundan ham kattaroq natijalarga erisha olar ekanman, to‘siqlar yo‘q, faqat xohish va intilish zarur ekan, degan qarashlar shakllandi menda.

YOSH IJODKORLARNING SHE’RIY TO‘PLAMIDA SHE’RLARIM BOSILGANI MEN UCHUN TARIXIY KUN BO‘LGAN

litseydagi tahsil jarayonlari meni bu imtihonga tayyorlagan, toblagan ekan – ustozlarimga tashakkur! Yana bir sir borki, o‘qishga kirishim, talaba bo‘lib, qanday natijalarga erishishim kerakligini avvaldan reja qilib qo‘ygan edim va ana shu maqsadlar izidan quvdim. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetiga o‘qishga qabul qilinganimdan keyin ustozim Jamshid Norqo‘ziyev menga beminnat ko‘mak berdilar. Turli tanlovlarda ishtirok etish, davlat mukofotlarini qo‘lga kiritishda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatgan bu insonni universitet qadrlaydigan talabalardan biri bo‘lishimga ishontirganman. O‘quv yillarida ijod namunalarim bilan shoira sifatida tanila boshladim. Avvaldan mashq qilib, she’riyatga mehr qo‘yganim bois buni davom ettiraman, Zulfiya mukofotini qo‘lga kirtaman deya niyat qildim. Yosh ijodkorlarning she’riy to‘plamida she’rlarim bosilgani men uchun tarixiy kun bo‘lgan desam nima deysiz?

Izhor

Kim uchundir oddiy ko'rinishi mumkin, lekin shu kungacha erishganlarim men uchun katta yutuq. 2023-yili aprelda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan Wikistipendiya marafoni doirasida tashkillashtirilgan Wikioromgohning 3-mavsumida ishtirok etdim. Universitetimiz 7 yillik tadbirida faol qatnashib diplom bilan taqdirlandim. O'tgan yili sentabrda turk tilidan B2 darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'ldim. O'zbekistondagi ilk turkologik va folklor sayt – "turkona.uz" muxbiri bo'ldim. Nega aynan shu sayt, chunki turkiy xalqlarning o'z udumlari, o'z tutumlari, urf-odatlari bor, asrlar osha bizgacha yetib kelgan. Ana shu qadriyatlarni tarannum etishda hissa qo'shish niyatida yeng shimarganlardanman deya olaman. Bu yo'lda "turkona.uz" saytining maqsadlari katta, albatta. Yutuqlarim haqida yana gapiradigan bo'lsam, 2023-yil dekabrda Islom Karimov nomidagi davlat stipendiyasi sovrindori bo'ldim. 2024-yilda 1 haftalik muddat davomida Turkiyadagi G'oziy universiteti darslarida qatnashdim. Qadamba-qadam erishib kelayotganlarim meni toliqtirmay, aksincha yana-da jiddiyroq va kattaroq yutuqlarga ruhlantiryapti. Shu bilan birga, ijodiy kayfiyatim yaxshilanib, yozganlarim kitobxonlarning qo'liga ham yetib bordi. "Istiqbol" gazetasi tomonidan tashkillashtirilgan "Istiqbolli yoshlar" almanaxida ijod namunalarim chop etilgani bunga misol. Avgust oyida Turkiyada "O'zbekistonning iqtidorli ovozlari" nomi ostida turk tilida nashr qilingan ijodiy ishlar to'plamiga mening ham she'rlarim kiritildi. Adabiyot yo'nalishida yozgan bir qancha ilmiy maqolalarim respublika konferensiya to'plami va ilmiy jurnallarida chop etildi. O'ylab qarasam, kishining muvaffaqiyatlarga erishishida uning yashash sharoiti, ijtimoiy kelib chiqishi ahamiyatsiz ekan. "Intilganga tole yor" deganlaricha bor ekan.

Ko‘pgina tenqurlarim men qatnashadigan tanlovlardan naf yo‘q, behuda vaqt o‘tkazish deb aytishar edi. O‘shanda bu fikrga qo‘shilgandek ham bo‘lardim. Ammo bugun o‘qishni tamomlash arafasida shuni angladimki, bu kabi tadbirlar qobiliyatim, iste’dodimni, o‘zimni qayta kashf qilishimga katta yordam bergan ekan.

Hozirda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ona tili va adabiyot ta’limi fakultetining bitiruvchisiman. Bitiruv malakaviy ishimni “Hozirgi yoshlar she’riyatida mazmun va shakl o‘zgarishi tamoyillari” mavzusida yoqlayapman. Madina Norchayeva, Feruza Xayrullayeva, Tillaniso kabi shoiralarimiz ijodini o‘rganish o‘zimga ham qiziq edi, aslida. Bitiruvchi bo‘lganim uchun so‘nggi kunlar hayajonli, endigi marralar uchun erishuvchanlik immuniteti bor, maqsadlarimga yakka o‘zim odimlashim meni ham ruhlantiryapti, ham ko‘rinmas kuch bag‘ishlayapti.

Hayotiy bir shoirim bor: agar sen muvaffaqiyat uchun ma’lum vaqtingni ayasang, buning badalini bir umr to‘lab o‘tasan. Shu sababdan besamar o‘tgan kunlarimning o‘rnini to‘ldirish uchun ba’zida shirin uyqudan ham, keraksiz yumushlardan ham o‘zimni cheklayman. Va buni uddalayotganimdan mamnun bo‘laman. To‘g‘ri, yutuqlarim ko‘pchilikni hayron qoldirmas, ammo menga boqqan havasli nigohlarni sezib turaman. Va ichimda o‘ylaymanki, bu hali boshlanishi, demak menga yana ham ko‘proq jur’at, qat’iyat va harakat kerak. Bir kun kelib, shunchaki yashamaganim, vijdonim oldida boshim egik bo‘lmasligini istayman.

MAQSADLARIMGA YAKKA O‘ZIM ODIMLASHIM MENI RUHLANTIRYAPTI

Hulkaroy RAJAPOVA
Islom Karimov nomidagi davlat stipendiyasi sohibasi

USTALAR

(Albatta o'qing!)

O'zbek uchun uy qurish o'lguncha davom etadi. Ikki o'g'limni uylantirishim kerak. Uch o'g'lim kengashib hovlining ichiga uy quramiz, keyinroq alohida uy olib chiqamiz deyishdi. Toshkentda uy-joy qilish uchun bir necha yil ijarama-ijara ko'chib yurganim, 1 xonalik, keyinroq uni 2 va 3 xonalik qilib, yana ancha vaqt qarz uzib qiynalganim uchun rozi bo'ldim. Ahillik bilan yashashga ko'zingiz yetsa quraveringlar deb, hovli ichidan joy ko'rsatdim. O'tgan yili kuzga qadar 4 xona uy qurdirib tomini yopishdi. Ular pulni yetkazib berib turishdi men prorablik qildim. Pul tugab ishni kuzda to'xtatdik. Odatda, usta ishlatsam quyidagi shartlarda ishlaymiz:

1. Ish frontini ko‘rsatib aniq baholashib olaman. Ertaga “mana bu joy qiyinroq ekan, qo‘shib berasiz” degan gapni olmayman (shundan kuyganman, bir marta).

2. Qurilish materiallarini ustani olib borib, o‘zim xarid qilaman. Zinhor usta aytgan do‘kondan olmayman.

3. Muddatini taxminan kelishaman. Muddatidan umumiy ish kunlarining 10 foizidan o‘tsa, shartlar buzilishini uqtiraman (ob-havo va boshqa obyektiv sabab bilan kun uzayishi bundan mustasno).

4. O‘zim va oilamga nima taom tayyorlansa, ustaga ham shuni ravo ko‘raman (go‘shtsiz ovqat bo‘lmaydi, umuman). Kechki payt va ertalab, asosan, birga ovqatlanaman. Ichadigan usta ishlatmayman.

5. O‘g‘illarimga va oilamga meni ruxsatimsiz ustaning ishiga aralashishiga yo‘l qo‘ymayman.

6. O‘g‘illarimga ustalarga har kuni salom berish va hurmat-izzatini qilishni uqtiraman.

7. Ustalarga biror masalada ikkilansa, darhol faqat men bilan bog‘lanib hal qilishni so‘rayman.

8. Ishni kunlik ravishda nazorat qilaman. Sifat parametrlari bo‘yicha talabimni tushuntiraman.

9. Ish yakunlangach shartlashganimiz bo‘yicha hisob-kitob qilib, haqini berib, rozi-rizolik so‘rayman.

10. Ishni qabul qilishda pulga quruvchi mutaxassis chaqirib bank o‘lchovi qilib tekshirtirib olaman.

Uyda ayollar (xotinim, kelinim), qizim bo‘lgani uchun, qolaversa, yon qo‘shnilarning hurmati ustalarni ish vaqtida zarurat bo‘lganda ham bir-birini haqorat so‘zlar bilan urishishini qat’iyan taqiqlayman. Ayol qizlar bilan osh-ovqat bo‘yicha va boshqa maishiy masalada zarurat bo‘lsa ham muloqot qilmaslikni, faqat men bilan gaplashishi mumkinligini ogohlantiraman (“kelin, bugun obedga nima ovqat endi”, deb tomdan turib so‘ragan usta bilan xayrlashib, boshqa usta olib kelgan kezlarim bo‘lgan). Ayollar, qizlar tomondagi uyga kirishga (nimanidir, misol elektr, suv yo‘llarini ko‘rishga) xonadondagi erkak kishining hamrohligisiz kirishni taqiqlayman. Ayol kishi ish qilib turgan yo‘lakdan o‘tsa, izn so‘rash yoki yo‘talib belgi berishni talab qilaman.

Yaqinda suvoqqa usta soldik. Ish boshlanishida ustalarni kutvolib, xomashyolarni keltirib berib, ular bilan yuqoridagilarni shartlashdim. O‘zim esa viloyatlarga xizmat safariga ketdim. Bir kunga uyga kelsam, qizim xafa. Nima gap desam, ustalarning bizni haqorat qilganini aytdi. Voqea qanday bo‘lgan? Ustalardan biri suvoq vaqti sherigiga “Unday qilma, sementni oz qo‘shyapsan, ertaga uyalib qolmaylik” desa, sherigi “E, ishing bo‘lmasin, bu dolbo...blarga bo‘laveradi shu ham” degan. Ustalarning boshlig‘ini chaqirdim. U qolgan 4 ta ustani chaqirdi. Salom-alikdan keyin so‘radim.

– Usta, sizlarni bu uyda hech kim xafa qilmadimi?

– Yo‘q.

– Oziq-ovqat, boshqa meni zimmamdagi yumushlardan kamchilik o‘tmadimi?

– Yo‘q, aksincha hammasi boshqa ishlagan joylarimizdan yaxshi.

– O‘g‘illarim, ahli ayollar sizlarga hurmatsizlik yoki bepisandlik qilmadimi?

– Yo‘q, juda tarbiyali bolalar, har kuni salom-alik, xolos.

Shunda yuqoridagi dialogning sababini so‘radim.

Tan olishmadi. Vaqtini chamalab qidirib noutbukdan videokuzatuv kamerasidagi yozuvni topib ko'rsatdim va eshittirdim. Mulzam bo'lib qoldi. O'sha bolalarning oyoq-qo'li qaltiradi.

– Men sizlarga nima yomonlik qildim, – dedim. Indamay yer chizdi. Agar o'sha aytgan haqoratining o'zbekcha ma'nosini aytsa, kelishilgan summani 2 barobarini to'lashga roziligimni aytdim. Tinmay uzr so'rayapti.

– Sizlar shartni buzdingiz, kelishganimizdek umumiy bahoning 10 foizini bermayman, ishni to'xating va haqingizni olib chiqib keting, – dedim. Yana tinmay uzr so'radi.

– Men bu uydagi muvozanat va xotin-qizlarning muhofazasiga javobgarman. O'zim uyda bo'lmayotganim sababli, sizday non-tuz ichgan joyida uy sohiblarini haqorat qiladigan og'zi shaloq axloqsizlarni ham qoldirolmayman dedim.

Bir soatda bank o'lchoviga qurilish mutaxassisi kelib ish sifatini tekshirib berdi. Ikkita burchakdagi kamchilikni to'g'rilashdi.

Ketar vaqti haqini berdim. Roziligini aytdi. Lekin 10 foiz olib qolmadim, to'liq berib:

– Qilgan mehnatingizdan roziman, siz ham rozi bo'ling. Lekin dilim og'ridi, uzoqdagi bola-chaqangizning rizqi hurmati haqoratingizga javob berdirmadim. Boshqa joyda bu hunaringizni qilmang. Axloqingizga rozimasman, sizlarni Xudoga soldim, – dedim.

Katta usta yer chizib, "bizga katta saboq bo'ldi, uzr", dedi.

Hammasi boshini egib chiqib ketishdi. Ishning chalasiga boshqa usta topamiz.

Bahriddin ASROR

75

9 MAY – MILLAT OYDINI, PROFESSOR QOZOQBOY YO‘LDOSH TUG‘ILGAN KUN!

Qozoqboy domla deydiki...

* * *

Tushunmaganimiz uchun bir-birimizni bilmaymiz, bilmasdan turib, tan olmaymiz, inkor qilamiz. Keyin: “Nega o‘zbek adabiyotini dunyo tanimaydi?” – deya chin dildan o‘ksinib ham qo‘yamiz. Biz o‘zimizni o‘zimiz tuymasak, tushunmasak, tushuntirmasak, tanimasak, kim bizni taniydi? Qanday qilib va nega tanishi kerak?

* * *

Inson o‘zining o‘tkinchiligini anglagandan buyon yashagan umrini abadiylashtirishga urinib keladi. Odamning bu boradagi intilishlari badiiy adabiyotda, ayniqsa, yorqin va jozibali yo‘sinda namoyon bo‘ladi. Shu boisdan badiiy adabiyotning mohiyatini anglab yetish nafaqat filolog mutaxassis, balki o‘zi haqida o‘ylaydigan har bir fikr kishisi uchun o‘ta muhimdir.

* * *

Balki, adashayotgandirman, ammo menga bizning o‘zbek yoppasiga bir-birovini eshitishni istamaydigan ulus bo‘lib tuyulaveradi. O‘risda: “Hech qachon hech qachon dema”, – deganga o‘xshash naql bor. Biz hamma narsani darhol yo u yoqlik, yo bu yoqlik qilib tashlagimiz kelaveradi. Istalgan masaladagi siz topgan bitta haqiqat sizning haqiqatingiz. Lekin men nega unga rioya qilishim kerak? Men boshqacha haqiqatni topgan bo‘lsam-u, u birovlarga ma’qul kelmagani uchun o‘zgartirayinmi? Haqiqat bitta bo‘ladi degani, butun millatga bitta bosh yetarli deganga o‘xshash gap. Haqiqatning bittaligini faqat Yaratganning bittaligiga nisbatangina ishlatish o‘rinli. Boshqa har qanday sharoitda o‘ylaydigan odam nechta bo‘lsa, haqiqat ham o‘shancha bo‘ladi.

Bo‘ron tomog‘idan omon chiqamiz,
Sabolar shahriga yetamiz albat.
Vafo arqonini suvdan tortamiz,
O‘ljamiz muhabbat.

Ko‘zingni yumgin-u quchog‘imga kir,
Yuragim mushkidan bo‘ylanar yuzing.
Bu uy atirgulning tushinikidir,
Yop-yorug‘, chirog‘i – bulbulning ko‘zi.

Ey gul, ketasanmi men bilan?!

Abduvali QUTBIDDIN

"Faqat ikkimiz"
Niderlandiyalik rassom Vilyam Henrits kartinasi